O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

Qo’lyozma nusxa asosida
UDK-3369871.258

KUSHAKAEV SHAVKAT SADULLAEVICH

TO’QIMACHILIK TARMOG’IDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TADQIQOTI

Mutahassislik: 5A230901-“Buxgalteriya hisobi”

Magistr
akademik darajasini
olish uchun yozilgan

DISSERTASIYASI

Ilmiy rahbar:
dots., t.f.n. Majidov A.A.

Ilmiy maslahatchi:
i.f.n.Tillyahodjaev M.A.

TOSHKENT-2013

MUNDARIJA

Kirish……. 3

I-BOB. TO'QIMAILIK TARMOG'IDA INVESTITSION FAOLIYAT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.. 7

1.1. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsion faoliyatni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari……..….. 7

1.2. Tarmoqning investitsion jozibadorligini mohiyati va uslubiy asoslari……. 13

1.3. To'qimachilik tarmog'ida investitsiya samaradorligini baholashning uslubiy asoslari…….. 20

Birinchi bob bo'yicha xulosalar……..……. 32

II-BOB. TO'QIMACHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISH HOLATINI TAHLILI VA MOLIYAVIY HOLATINI TADQIQI..... 34

2.1. To'qimachilik tarmog'ining rivojlanish holati…… 34

2.2. To'qimachilik tarmog'idagi korxonalarning moliyaviy holatini tadqiqi…… 37

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar…….. 42

III-BOB. TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI..... 43

3.1. Investitsion loyihalar samaradorligini baholash va tanlash uslublarini takomillashtirish…… 43

3.2. To'qimachilik tarmog'ining investitsion jozibadorligini baholash..... 52

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar……..... 58

Xulosa va takliflar…….. 60

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati…….. 62

Ilovalar…… 68

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O’zbekiston to’qimachilik tarmog’i ko’p asrlik tarix va an’analarga ega. Hozirgi kunda respublikamiz to’qimachilik tarmog’ining ustuvor vazifalaridan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bir maromli o’sishni ta’minlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, investitsion faoliyat tarkibiy o’zgarishlar, korxonalarni modernizatsiyalash, investitsion resurslarni jalb etish, aholini ish bilan ta’minlash omillari orqali pirovard natijada tarmoqni yuqori iqtisodiy o’sish sur’atini ta’minlash vositasini bajaradi.

To’qimachilik tarmog’ini rivojlantirishning muhim omillaridan bo’lib investitsion faoliyat samaradorligini tadqiqi hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «…mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta’minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan yangi va zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hal qiluvchi ustuvor yo’nalishga aylandi. Respublikamizda 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 14 foizga ko’p, ya’ni 11 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o’zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 22,9 foizini tashkil etadi.

Shu boradagi umumiy qo’yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 2 milliard 500 million dollarni, to’g‘ridan-to’g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 79 foizni tashkil etdi [20].

Mamlakatimiz to’qimachilik korxonalarini yetarli darajada paxta tolasi bilan ta’minlash imkoniyati mavjud bo’lsada, o’rnatilgan jihozlarning yetarli darajada quvvatga ega bo’lmaganligi sababli, tayyorlangan paxta tolasini bir qismiga qayta ishlov bermasdan xom ashyo sifatida eksport qilinmoqda.

Shu nuqtai nazardan, to'qimachilik tarmog'idagi mavjud muammolar va kamchiliklar, investitsion faoliyat samaradorligini tadqiqining uslublarini ilmiy asoslash va ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Muammolarni hal etish yo'llarini izlash va ularni bartaraf etishga doir asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib «O'zbekengilsanoat» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi (DAK) tarkibiga kiruvchi to'qimachilik tarmog'i korxonalarini investitsion faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib to'qimachilik tarmog'i korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlari va omillari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi to'qimachilik tarmog'ini modernizatsiyalash sharoitida investitsion faoliyatning samaradorligini tadqiqi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va uni amaliyotga tadbiq etish borasida tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Dissertatsiya maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- «investitsion faoliyat» tushunchasini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan iqtisodiy mazmunini tadqiq etish;
- investitsion jozibadorligini tahlil etishni zamonaviy uslublarini ilmiy jihatdan umumlashtirish;
- to'qimachilik tarmog'ida investitsion loyihalarni samaradorligini baholashning mavjud usullarini tadqiq etish;
- to'qimachilik tarmog'ini rivojlanish holatini tahlil etish;
- to'qimachilik tarmog'ida investitsion loyihalar samaradorligini baholash va tanlash uslublarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- tarmoqni investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot masalalari va farazlari. O'ziga xos jihatlariga ega bo'lgan to'qimachilik tarmog'ini rivojlanishi, tayyorlanadigan mahsulotlarni miqdorini ko'payishi, uning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro andozalar talablari darajasiga etkazilishi, korxonalarni eksport salohiyatini oshirilishi o'zaro uzviy bog'langan «O'zpaxtasanoat» uyushmasi va «O'zbekengilsanoat» DAKning faoliyatiga bevosita bog'liq ekanligi haqida ilmiy gipoteza ilgari surildi.

Adabiyotlar tahlili. Investitsion faoliyatni ilmiy-nazariy asoslari xorijlik iqtisodchi olimlarning, jumladan, Abramov S.I., Aleksandr G., Beyli D., Birman G., Blank I.A., Bryu S.L., Valdaytsev S.V., Vaxrin P.I., Gitman L.Dj., Djonk M.D., Klass E., Laxmetkina N.I., Makkonell K.R., SHarp U., TSarev V.V. va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Mazkur muammoning turli jihatlari Abdug'aniev A., G'ulomov S.S., Juraev A.M., Ikromov M.A., Iskanderov I.I., Madjidov SH.A., Xikmatov O.X., SHarifxo'jaev M.SH., Qodirov A.M., YUldashev SH.G. va mamlakatimizning boshqa olimlari ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

YUqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiq etilayotgan muammoni hal etishga qo'shgan hissalarini e'tirof etgan holda, to'qimachilik tarmog'ini rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari etarli darajada tadqiq etilmagan. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muammoni nazariy- metodologik aspektlari echimini amaliy imkoniyatlar bilan bog'lanishda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. SHu boisdan, to'qimachilik tarmog'ida investitsion faoliyat samaradorligini tadqiqiga doir ilmiy – uslubiy hamda amaliy tavsiyanomalarni asoslash va ishlab chiqish, dissertatsiya mavzusini tanlab olinishi, tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil qilish, ekspert baholash, matematik modellashtirish, korrelyatsiya – regressiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqot nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy – tadqiqot natijalari, umumiy xulosalar va tavsiyalar to'qimachilik tarmog'ida amalga oshirilayotgan

iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda uning samaradorligini tadqiqotida muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, dissertatsiya ishining asosiy g'oyalari va materiallaridan to'qimachilik tarmog'ida investitsion faoliyatni samaradorligini tadqiqotiga oid ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- «investitsion faoliyat» kategoriyasi tushunchasiga aniqlik kiritildi;
- to'qimachilik tarmog'ida investitsion loyihalarni samaradorligini baholashning diskontlash usulidan foydalanish orqali hisoblash uslubi asoslandi;
- to'qimachilik tarmog'ida investitsion loyihalar samaradorligini baholash va tanlash uslublarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 71 bet bo'lib, unda 9 ta jadval, 3 ta rasm va 5 ilovalar o'rin olgan.

I- BOB. TO'QIMAILIK TARMOG'IDA INVESTITSION FAOLIYAT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsion faoliyatni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi sharoitida rivojlanishning asosiy omillaridan biri modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha muhim vazifalarni bajarish, iqtisodiy siyosatning hal qiluvchi yo'nalishi: «jahon bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda mavjud korxonalarni rekonstruktsiya qilmasdan, zamonaviy, ilg'or va yuksak texnologik uskunalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etmasdan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilamasdan turib iqtisodiyotimiz kelajagini, binobarin, aholi farovonligini yuksaltirishni ta'minlash mumkin emas»ligi ta'kidlangan.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 14 foizga ko'p, ya'ni 11 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 22,9 foizini tashkil etadi.

O'zlashtirilgan barcha investitsiyaning 50 foiziga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilgan. [20]

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiya hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgani e'tiborga sazovordir.

Modernizatsiya xususida respublikamiz Prezidenti quyidagi fikrlarni bildiradi: «…investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi» [19].

Shu nuqtai nazardan investitsiya mohiyatini to'g'ri va to'liq talqin etish katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va uni barqaror rivojlantirishda, mamlakatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda investitsion faoliyat muhim o'rin egallaydi.

Investitsion faoliyat xo'jalik yuritishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiradigan omillardan hisoblanadi.

Investitsion faoliyat etarli miqdordagi investitsion resurslarni vujudga keltirish, investitsiyani samarali ob'ektlarga yo'naltirish, investitsiya portfelini shakllantirish kabi jarayonlarni o'z ichiga olib, quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: foydani o'sishini turli hududlarda yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish hamda eskirgan asosiy vositalarni almashtirishga investitsiyalarni yo'naltirish natijasida mahsulot hajmini kengaytirish orqali ta'minlaydi; davrlar bo'yicha bir maromda amalga oshirish imkoniyatini yo'qligi; foyda yoki samarani odatda ma'lum vaqtlardan keyin olinishi; davr va yo'nalishlarga qarab farq qiladigan alohida pul oqimini shakllanishi; tavakkalchilik xususiyatiga egaligi; mezon sifatida sof investitsiya ko'rsatkichidan foydalanishi, ya'ni yalpi investitsiyadan amortizatsiya ajratmasini ayirmasi kabi hisoblanishi.

Investitsion faoliyat tarkibi maqsad, vosita va natijani o'z ichiga oladi. Investitsion faoliyatning maqsadi – yuqori darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Investitsion faoliyatning vositasi – investitsiya, investitsion imkoniyat va investitsion jarayonlardan tarkib topgan investitsion siyosatni belgilaydi. Investitsion faoliyatning natijasi – qulay ivestitsion muhitni shakllantirish, yuqori darajadagi investitsion jozibadorlikga erishish asosida investitsion resurslarni oshirishga shart-sharoitlar yaratish va ulardan samarali foydalanishdan iborat.

Iqtisodiy tadqiqotlarda investitsion faoliyatning nazariy va amaliy jihatlarini asoslashga doir muammolarni o'rganish hamda ularni hal etishga katta ahamiyat berilgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz hamda xorijiy olimlar tomonidan izlanishlar olib borilsada, «investitsion faoliyat», «investitsiya», «investitsion muhit» va shu kabi iqtisodiy kategoriyalarni mohiyatini to'liq yoritadigan va ochib beradigan yagona ta'rif mavjud emas.

Investitsion faoliyat nazariyasining rivojlanishiga xorijiy iqtisodchi olimlardan A.Smit, D.Rikardo, Dj. Keyns, K. Makkonell, S. Bryu, U. SHarp, G. Aleksanderlar munosib hissa qo'shganlar.

Bu ta'rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki, qanchalik ko'p mablag'larni investitsiyalashga yo'naltirilsa, shunchalik investitsion faoliyatning darajasi yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunda – investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyani amalga oshirish bilan bog'liq xarakatlari majmuasi, deb ta'rif berilgan [3].

Yuqoridagi ta'riflarda investitsion faoliyatning mohiyati etarli darajada o'z ifodasini topmagan. Investitsion faoliyat, nafaqat davlat va yuridik shaxslar tomonidan, balki xorijiy fuqarolar hamda vositachi moliyaviy tashkilotlar (investitsion fondlar va kompaniyalar) tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Fikrimizcha, investitsion faoliyat – iqtisodiy tizimdan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini tashkil etish va o'zaro muvofiqlashtirishdir.

Iqtisodiy tizimni rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi investitsion faoliyatning tarkibi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: investitsiya; investitsion imkoniyat; investitsion jarayon; investitsion siyosat.

Nazarimizda, iqtisodiy sub'ektlarning rivojlantirishda, investitsion faoliyatni yuqoridagi elementlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiyaning shakllanishi va samarali foydalanishi iqtisodiy o'sish, uning sifati va innovatsiyaligini ta'minlaydi.

Investitsiya iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiy tizimni makro hamda mikro darajasida keng ishlatiladi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda hamda ilmiy tadqiqotlarda investitsiya nazariyasiga doir turlicha qarashlar mavjud. Bu manbalarda investitsiyaga berilgan ta'riflar, asosan, investitsiyani kapitallarni oshirish yoki joriy daromad (foyda) olish manbai sifatida talqin etilgan. Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya sub'ektlari investitsiyani jalb etish orqali

kapitallarini yoki daromadni (foydani) ko'paytirishdan manfaatdor. SHu bilan birga, ayrim hollarda, noiqtisodiy maqsadlar uchun ham investitsiyani yo'naltirilishi mumkinligi etarli darajada o'z ifodasini topmagan.

Ba'zi ta'riflarda investitsiya pul mablag'lari, deb ham talqin etiladi [36]. Bu fikrga to'la qo'shilish mumkin emas, chunki investitsiyalash jarayonida kapitalni nafaqat pul shaklida, balki boshqa – ko'char va ko'chmas mulk, turli moliyaviy instrumentlar (avvalambor, qimmatli qog'ozlar), nomoddiy aktivlar va boshqa ko'rinishda ham kiritish mumkin.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan: S.I.Abramov – «Investitsiya – bu daromad olish yoki ijtimoiy yoxud iqtisodiy samaraga erishish maqsadida ishlab chiqarish, tijorat, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va boshqa sohalarda turli dasturlar va loyihalarni amalga oshirish uchun intellektual qiymatliklarning majmuidir» [21]; V.G.Zolotogorov – «Investitsiya – bu daromad (foyda) olish va ijtimoiy samaradorlikka erishish maqsadida tadbirkorlik ob'ektiga va boshqa faoliyat turlariga sarflanayotgan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashina va uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, boshqa har qanday mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual (aqliy) boyliklardir» kabi fikrlarni ilgari surganlar [25].

Ayrim ta'riflarda investitsiyani uzoq muddatli qo'yilmalar, deb ta'kidlanadi [24, 26, 28, 29]. Darhaqiqat, investitsiyani ayrim turlari, birinchi navbatda, kapital qo'yilmalar, aktsiyalar bo'yicha investitsiya uzoq muddatli xarakterga egadir, lekin investitsiya qisqa muddatli bo'lishi ham mumkin, masalan, obligatsiyalar, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, bir yil muddatgacha bo'lgan davr uchun muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlariga yo'naltirilgan investitsiya.

Investitsiya – iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar, deb ham ta'rif berilgan [3].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan: D.G'. G'ozibekov – «Investitsiya – bu nazarda tutilgan va tutilmagan, ammo ehtimoli bor risklar hamda ko'zlanayotgan samaralarni baholash asosida, o'z va o'zga mablag'lar qiymatini kapitallashuvi va jamg'arilishini ta'minlash maqsadida moliyaviy va real aktivlarga bog'lanishi»

[35]; N.H.Haydarov «Investitsiya – bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik ob'ektiga sarflashidir» [41]. Investitsiyaning turli jihatlari mamlakatimizning iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan [33, 35, 36, 41, 43, 46]. Investitsiyaning o'xshash va o'zaro to'ldiruvchi tomonlari ta'riflarda o'z ifodasini topgan. YUqoridagi fiklarning tahlili shundan dalolat beradiki, investitsiya nazariy va amaliy jihatdan murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiy kategoriyadir.

Fikrimizcha, investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilishi maqsadga muvofiq: Investitsiya – bu foyda olish maqsadida, kapitalni barcha turlarini xo'jalik faoliyatining turli ob'ektlariga kiritilishi hamda bozor tamoyillariga asoslangan tavakkalchilik, likvidlik va vaqt omiliga bog'liq holda iqtisodiy yoki noiqtisodiy samara olishdir. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya quyidagi xususiyatga ko'ra tasniflangan: ishlatilish va funktsional sohasi, yo'nalishi; amalga oshirish muddati; turi; hajmi bo'yicha [50]; G.I.Ivanovning fikricha, investitsiya: real (kapital qo'yilmalar); moliyaviy investitsiyaga bo'linadi [26]; P.I.Vaxrin va A.S.Neshitoylar investitsiyani real va portfelli investitsiyaga bo'lishlik fikrini ilgari surganlar [39]. O'zbekiston Respublikasi Qonunida, mo'ljallangan ob'ektga ko'ra investitsiya: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyaga bo'linadi [3].

Bundan tashqari, bir qator xorijlik va O'zbekistonlik olimlar tomonidan investitsiyani tasniflashga doir turlicha fikrlar ilgari surilgan [21-24,33-36, 41, 43, 46]. Ilmiy risolalarda investitsiyaning turli xususiyatlarini inobatga olgan holda tizimlashtirilishi va tasniflanishni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan. Nazarimizda, investitsiyadan foydalanish samaradorligini oshirishni aniqlashda, yuqorida keltirilgan tasniflanishlar etarli darajada emasligi ko'rinmoqda.

Fikrimizcha, investitsiyani xususiyatlariga qarab tasniflanishi 1.1-rasmda keltirilgan shaklda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

INVESTITSIYALAR

Kapital qo'yilish ob'ektlariga ko'ra:	**Investitsion jarayonlarda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra:**	**Takror ishlab chiqarish yo'nalishi-ga ko'ra:**	**Daromadlarning bog'liqlik darajasiga ko'ra:**	**Investor-korxonalarga bo'lgan munosabatiga ko'ra:**
Real; moliyaviy.	Bevosita; bilvosita; intellektual	Yalpi; renovatsiya ; sof.	Ishlab chiqarish; avtonom.	Ichki; tashqi
Amalga oshirish muddatiga ko'ra:	**Birgalikda amalga oshirilishiga ko'ra:**	**Daromad-lilik darajasiga ko'ra:**	**Tavakkalchilik darajasiga ko'ra:**	**Likvidlik darajasiga ko'ra:**
Uzoq; o'rta; qisqa.	Bog'liq bo'l-magan; o'zaro bog'liq bo'lgan; bir-birini inkor etuvchi	Yuqori; o'rta; kam; daromad-siz.	Yuqori; o'rta; past; tavakkalchiliksiz.	Yuqori; o'rta; past; nolikvidlik.
Investitsiyala-nadigan kapitalni mulkchilik shakliga ko'ra:	**Investitsiyalash jarayonida kapitalni ishlatilishiga ko'ra:**	**Hududlar bo'yicha kapitalni jalb etish manbalari-ga ko'ra:**	**Investitsiyalana-digan kapitalni hududlar (bozorlar) bo'yicha yo'naltirilishiga ko'ra:**	**Korxonani aktivlarini yaratishiga ko'ra:**
Xususiy; davlat; xorijiy; aralash.	Dastlabki; reinvestitsiya; dezinvestitsiya.	Milliy; xorijiy.	Ichki; xalqaro.	Yakka tartibda; strategik.
Tarmoq bo'yicha yo'naltirilishi-ga ko'ra:	**O'zaro bog'liqlik darajasiga ko'ra:**	**Qo'shimcha investitsiya:**		**Joriy investitsiya**
Tarmoqlarni klassifikator-lariga asosan, tarmoqlar kesimi va faoliyat doirasida.	Yakka holda ajratilgan; tashqi omillarga bog'liq bo'lgan; tashqi omillarga ta'sir etuvchi.	Ishlab chiqarishni kengaytirishga; o'zgarishlarni amalga oshirishga: investitsiya jarayonini ratsio-nalizatsiya qilishga; mahsulot ishlab chiqarishni yangi dasturini bajarilishini ta'minlashga; ishlab chiqarishda diversifikatsiyani amalga oshirishga; xavf-xatarni oldini olishga.		Kapital va boshqa ta'mirlashlarni amalga oshirish; dastgohlarni almashtirishga yo'naltirilish.

1.1 - rasm. Investitsiyalarni tasniflanishi

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tavsiya etilayotgan investitsiyaning tasniflanishi investitsion jarayoni ishtirokchilari (investorlar, tijorat banklari, kredit muassasalari, davlat, korxonalar va boshqa moliyaviy institutlar) uchun iqtisodiy axborot manbai bo'lib investitsiyaga doir qarorlarni qabul qilish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasida investitsion faoliyatning mohiyatiga doir quyidagi fikr va mulohaza chiqarish imkonini berdi. Investitsion imkoniyat investitsiyani jalb etish jarayonida, investitsion faoliyatni asosiy elementi bo'lib hisoblanadi. Investitsion jarayonni samaradorligi, etarli miqdordagi investitsion resurslarni shakllantirish investitsion imkonyatdan foydalanish darajasiga bog'liq. Investitsion faoliyatni elementi hisoblangan investitsion siyosat investitsiya, investitsion jarayon va imkoniyatni tartibga soladi.

1.2. Tarmoqning investitsion jozibadorligini mohiyati va uslubiy asoslari

Investitsiyani jalb etish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish hozirgi davrdagi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu jarayon o'z navbatida investitsion faoliyatga doir iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo etadi. Ular qatoriga investitsion jozibadorlik, investitsion imkoniyat, investitsion tavakkalchilik, investitsion resurs, investitsion muhit va shu kabi investitsion faoliyatni belgilovchi iqtisodiy tushuncha va ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

So'ngi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llanilib kelinayotgan «jozibadorlik» tushunchasi quyidagi tushunchalar bilan birgalikda ishlatilib kelinmoqda:

- «Ishchanlik jozibadorligi» – sherikchilik aloqalarida tuzilgan bitimlarni sifati, me'yor va majburiyatlarga rioya qilish, ma'lum imidjni saqlab turishni tahlil qilish va baholash;

– «Infratuzilma jozibadorligi» – tadbirkorlik sohasi yoki joyini tanlash, tahlil qilish va baholash;

– «Investitsion jozibadorlik» – investitsiya ob'ektlarini tasniflash va baholash, reyting orqali taqqoslashni amalga oshirish, turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va darajasidagi xo'jalik hamda investitsion jarayonlarni qiyoslash orqali tahlil qilish [22,32].

Infratuzilma va ishchanlik jozibadorligi investitsion jozibadorlikni tarkibiy qismi bo'lganligi sababli ularni alohida holda emas, balki investitsion jozibadorlikni tahlil qilish va baholash doirasida tadqiq qilish mumkin.

Ba'zi tadqiqotlarda, «investitsion jozibadorlik» kategoriyasini mazmuniga mos kelmaydigan tarzda talqin qilinadi. Masalan, investitsion jozibadorlikni mablag'ni qo'yilishida uni yo'qotish ehtimolini belgilovchi investitsion tavakkalchilik bilan aynan bir xil, deb qaraladi [44]. Lekin bunday hol modellashtirish va bashorat qilishda bir tomonlama baho berishga olib keladi va investitsiya kiritilishi natijasidan kutilayotgan daromadni aks ettirish imkonini bermaydi.

Yu.V.Sevryugin investitsion jozibadorlikni «investitsion imkoniyatlar», ya'ni investitsion jarayonni bir jihatiga asoslangan, aynan tavakkalchilikni hisobga olmagan holda, investitsiya ob'ektlarini tahlil qilish va baholash sifatida talqin qiladi [45].

O'zbekistonning yirik iqtisodchi olimlari tomonidan investitsion jozibadorlikni turli jihatlari ochib berilgan. Ular jumlasiga, bir guruh iqtisodchi olimlar tomonidan chop etilgan ilmiy risolalarda investitsion jozibadorlikni belgilashga doir turli fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, A.Qodirov «Bozor hajmini aniqlashga doir ko'rsatkichlar orqali investitsion jozibadorlikni aniqlash» [46].

Fikrimizcha, investitsion jozibadorlik kategoriyasi mohiyatini quyidagi ta'rif aniq belgilaydi: «Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligi – bu to'lov qobiliyatiga ega investitsiyaga talab, turli ob'ektiv belgilar, xususiyatlar, mablag'lar, tizim imkoniyatlari jamlamasidir». Demak, investitsion jozibadorlik,

o’zaro bog’langan va birgalikda ta’sir etuvchi investitsion imkoniyat va investitsion tavakkalchilik kategoriyalaridan iborat.

Investitsiyani nafaqat daromad olish uchun yo’naltirilishini inobatga olgan holda, investitsion imkoniyat kategoriyasini keng ma’noda talqin qilinishi mumkin. Xususan, «investitsiyaning jalb etilishi natijasida erishilishi mumkin bo’lgan manfaatlar» - deb ta’riflanishi bu kategoriya mohiyatini to’la ravishda anglatadi.

Ishlab chiqarishga doir investitsion resurslarni hisoblash ko’rsatkichining tarkibi asosiy va aylanma kapital elementlaridan iborat. SHu nuqtai nazardan, investitsion imkoniyatlar, bu ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish natijasida vujudga keladigan daromadlarni joriy qiymatini aks ettirib, ishlab chiqarish sohasini rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Fikrimizcha, Yu.A.Doroshenko tomonidan tavsiya etilayotgan uslubiyat, iqtisodiy sistemani ishlab chiqarish sohasidagi imkoniyatlarini tadqiq etishda qo’llanilishi bilan chegaralanib qolinganligi sababli, undan investitsion imkoniyatlarning bir tomonini tasniflashda foydalanish mumkin.

Investitsion imkoniyat bilan resurslarni investitsion imkoniyatlari, ya’ni ularni shakllanish manbalari orasidagi o’xshashligiga asoslangan resurs yondashuvi g’oyasini S.V.Valdaytsev ilgari surgan [47].

Muallif, investitsiyani shakllanish manbalari tarkibiga «foyda, amortizatsiya ajratmasi, byudjetdan tashqari turli fondlarning ajratmalari, moliyaviy, tijorat tashkilotlari va davlatning aktivlari hamda aholining jamg’armalarini» kiritadi.

Nazarimizda, investitsion imkoniyatlarning resurs yondashuvida quyidagilar hisobga olinmagan:

- investorning investitsion jarayonda qo’yiladigan mablag’larini uning imkoniyatlariga bog’liq bo’lib qolishi;
- iqtisodiy sistemaning faoliyat ko’rsatishida ishlatiladigan moliyaviy resurslar darajasining baholanishi.

Yuqoridagi ikkala holatda ham, investitsion imkoniyatning mohiyati to’la ochib berilmagan. Shu nuqtai nazardan, investitsion faoliyatga doir muammolarni

hal etishda resurslarni investitsion imkoniyati yondashuvini tatbiq etish sohasi chegaralangan.

T.S.Xachaturov investitsion imkoniyatni, «Soliq to'lagandan keyin, korxonada qoladigan amortizatsiya ajratmasi va sof foyda» - deb talqin etgan.

Bu holda, investitsion imkoniyat resurslardan samarali foydalanish quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$II = D - M - F \times (1 - f_s) \qquad (1.1)$$

bu erda,

II – korxonaning investitsion imkoniyati;

D – ma'lum davrdagi korxonaning daromadi;

M – korxonaning moddiy xarajatlari;

F – foyda;

f_s– foyda solig'i stavkasi.

Fikrimizcha, bunday yondashuv investitsion imkoniyat kategoriyasi mohiyatini to'la ifodalamaydi, ya'ni investitsion imkoniyat bilan investitsiyadan pul mablag'lari oqimi aynan bir xil deb qaralishiga olib kelinishi natijasida uning qo'llanilish sohasi chegaralanib qoladi.

Nazarimizda, iqtisodiy sistemaning investitsion imkoniyati mohiyati to'la yoritilishida «ekspert-reyting» asosidagi yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, investitsion imkoniyatlar baholanishda ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan korxona, tarmoq va hududni rivojlanishini belgilovchi miqdoriy ko'rsatkichlar, ya'ni reytinglar hisoblangan natijalar bilan taqqoslanishi natijasida xulosalar tayyorlanadi.

«Investitsion imkoniyat» ko'rsatkichlari yordamida investitsion faoliyatning tahlil qilinishi, investorlarga mablag'larini maqsadli joylashtirish imkonini beradi. Lekin, mablag'larning qaerga joylashtirilishini aniqlashda faqatgina investitsion imkoniyat ko'rsatkichidan foydalanish etarli natijalarni bermaydi.

Bu muammoni qo'shimcha ravishda «investitsion tavakkalchiligi» kategoriyasi ko'rsatkichlarini qo'llanilishi orqali hal etish mumkin.

«Investitsion tavakkalchilik» kategoriyasini talqin qilishda uchta guruhdagi tavakkachiliklarni hisobga olish kerak:

- investitsion tavakkalchilik – bu investitsion loyihadan daromad ololmaslik va mablag'ni butunlay samarasiz joylashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikdir. Bunday yondashuv investitsion tavakkalchilikni kelib chiqish sohasini to'la ifodalamaydi va investorni boshqa turdagi tavakkalchiliklarni hisobga olmasligi natijasida kutilayotgan yo'qotishlarni to'la hisoblash imkonini bermaydi;
- investitsion tavakkalchilik – bu investitsion faoliyati jarayonida vujudga keladigan va investitsiyani amalga oshirishda to'la yoki qisman ijobiy iqtisodiy natijaga ega bo'la olmaslik ehtimolini ifodalaydigan har xil turdagi tavakkalchilik. Bunday yondashuv orqali tavakkalchilik hodisasi ro'y berganda maksimal darajada yo'qotishlarni bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishlik sababli uni investitsiyalashni har xil darajasi va sohasiga qo'llash imkoniyati mavjud;
- iqtisodiy hodisalar tabiatida investitsion faoliyat davomida kelib chiqadigan yo'qotishlar boshqa turdagi tavakkalchiliklar natijasida kelib chiqqanligi sababli, investitsion tavakkalchilik alohida kategoriya sifatida qaralmaydi. Bunday yondashuvda «tavakkalchilik» ta'rifini mohiyati noto'g'ri talqin qilinadi, natijada boshqa turli tavakkalchiliklarni aniqlashda noaniqliklarga yo'l qo'yiladi. Masalan, investorlar kutilayotgan moliyaviy daromadini baholashda aniqlikni kamaytiradi.

Fikrimizcha, investitsion tavakkalchilikni – «noaniq holatdagi investitsion faoliyatda kutilmagan yo'qotishlarning vujudga kelishi ehtimolini anglatadi» deb talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Investitsion tavakkalchilik vujudga kelishi va zararning qoplanishi imkoniyatiga ko'ra ikki turga ajratiladi yoki ikki tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Ular quyidagicha:

- tijorat yoki o'ziga xos investitsion tavakkalchilik;

- notijorat yoki o’ziga xos bo’lmagan tarmoq investitsion tavakkalchilik.

Tijorat tavakkalchiligi – bu tadbirkorlik tavakkalchiligining bir turi bo’lib, investitsion faoliyat bilan bog’liq investitsion loyiha, tijorat faoliyatini amalga oshirilishi bilan bog’liq tavakkalchilik bo’lib, hamkorlarning mas’uliyatsizligi, asossiz texnik va texnologik echimlar, muvaffaqiyatsiz marketing natijasidagi yo’qotishlarni anglatadi.

Tijorat investitsion tavakkalchiligi korxonalar, birlashmalar darajasidagi faoliyatdagina namoyon bo’ladi. SHuning uchun u makroiqtisodiy, hududiy va tarmoq xususiyatiga ega emas.

Notijorat yoki investorga nisbatan tashqi bog’langan makroiqtisodiy, hududiy xarakterdagi holatlar, xususan, mulkka bo’lgan munosabat, hududdagi monopol holat, ekologik xavfsizlik va boshqa shunga o’xshash holatlarda namoyon bo’ladi.

Bunday tavakkalchilik hudud, tarmoq yoki korxona bo’yicha amalga oshiriladigan investitsion loyihalarga bir xilda ta’sir etishini inobatga olib, fikrimizcha, investitsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish va investitsion loyihalarning samaradorlik ko’rsatkichlarini hisoblashda ularni miqdoriy qiymatiga e’tibor berilishi lozim.

Bundan tashqari, tarmoq va korxona jozibadorligini aniqlashda, investorlarga investitsiyalash ob’ektlarini tanlash imkonini beradigan, investitsion sharoitlarning mavjudligini baholovchi «investitsion muhit» kategoriyasidan ham foydalaniladi.

Makroiqtisodiy darajada «investitsion muhit» kategoriyasi investitsiyalash uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muhitni belgilovchi ko’rsatkichlarni o’z ichiga oladi.

Mikrodarajada esa «investitsion muhit» investor bilan davlat tashkilotlari, mol etkazib beruvchilar, mijozlar, banklar, moliyaviy tuzilmalar, ya’ni ikki tomonlama munosabatlarda namoyon bo’ladi.

Keng ma’noda «investitsion muhit» kategoriyasi investitsiyaning samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa omillar tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarga asoslanib, «investitsion muhit» kategoriyasiga quyidagicha ta’rif berilishi lozim:

Investitsion muhit – bu korxona, tarmoq, hududda investitsion jozibadorlikni ta’minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarning ob’ektiv jamlamasidir.

Tarmoqning investitsion jozibadorlik darajasiga bir qator omillar ta’sir ko’rsatadi.

Hozirgi kunda respublikamizda investitsion faoliyatga doir qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda investorlarga, ayniqsa, xorijiy investorlarga huquq va faoliyatlarini kafolatlash, qo’shimcha rag’batlantirish choralari va imtiyozlar, to’g’ridan-to’g’ri xususiy xorijiy investitsiya jalb etilishini rag’batlantirish o’z ifodasini topgan [1-20].

To’qimachilik tarmog’ining samarali faoliyati tayyorlangan paxta tolasi miqdoriga bevosita bog’liq bo’lganligi sababli xorijiy investorlar uchun tarmoqni investitsion jozibadorligini aniqlashdagi omillar qatoriga paxta tolasini ishlab chiqish ko’rsatkichining kiritilishi ijobiy natija beradi.

Fikrimizcha, tarmoqning investitsion jozibadorligini ta’minlash uchun real investitsiya kiritish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, mavjud korxonalarni ta’mirlash va qayta jihozlash tadbirlarini amalga oshirish lozim.

To’qimachilik tarmog’iga xorijiy investitsiyaning yo’naltirilishi natijasida bunyod etilayotgan korxonalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish joylarini barpo etishga olib keladi. Buning natijasida to’qimachilik tarmog’ining investitsion jozibadorligi oshadi.

Investitsion faoliyat kategoriyasini tahliliga asoslangan holda, quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini beradi:

- investitsion faoliyatning rivojlanish darajasi ko’rsatkichlari iqtisodiy sistemaning investitsion jozibadorligi holatini belgilaydi. SHu nuqtai nazardan,

investitsion faoliyatni boshqarishi investitsion jozibadorlik holatini baholashga asoslanishi lozim;

- iqtisodiy sistemaning investitsion jozibadorligini baholash asoslariga doir uslubiyatini shakllantirishda, iqtisodiy sistemaning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi ahamiyatli omillar aniqlanishi lozim;
- investitsion faoliyatga doir qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslar tarmoqning investitsion siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- investitsion tavakkalchilik darajasining pastligi tarmoqni investitsion jozibadorligini oshirish imkonini beradi;
- investitsion faoliyatni amalga oshirishda xorijiy investorlarga ustunlik berilishi maqsadga muvofiqdir.

1.3. To'qimachilik tarmog'ida investitsiya samaradorligini baholashning uslubiy asoslari

Respublikamizda investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida har yili investitsion dastur qabul qilinadi. Jumladan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, ustuvor tarmoqlarga investitsiya kiritish, korxonalarning investitsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyani, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani keng jalb etish, ulardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlarni yaratish va shu asosida respublika iqtisodiyotini barqaror va bir maromda rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan Prezident Farmoniqabul qilindi [7].

Investitsiya dasturini amalga oshirish natijasida qariyb 250 mlrd. so'mlik asosiy fondlarga ega bo'lgan jami 423 ta ob'ekt, jumladan, engil va to'qimachilik sanoatida 65 ta ob'ekt ishga tushirildi. Bu ob'ektlar quyidagi mablag'lar hisobiga moliyalashtirildi: kompaniya va korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga 8,2 mlrd.

dollar, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi kreditlari 2,5 mlrd. dollar hamda xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 13,5 mlrd. dollar [50].

Iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish ishtirokchilariga soliqga oid va boshqa imtiyozlar berilgan [12]. Korxonalarni investitsion faoliyatini rivojlantirish ilmiy asoslangan loyihalarni ishlab chiqish orqali ham amalga oshiriladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «investitsion loyiha»larni mohiyatini ochib berishga qaratilgan turlicha ta'riflar keltirilgan. Jumladan, xorijiy tadqiqotchilardan Djons Ernest «Investitsion loyiha – bu vaqt bilan chegaralangan, resurs va mablag'larning belgilangan miqdordagi sarfi va natijalari sifatida qo'yiladigan talablar asosida tizimning o'zgarishidir» - deb ta'kidlagan [23].

V.V.Kovalevning fikricha, investitsion loyihalar ikkita hujjatdan tashkil topgan: kapital qo'yilmalar hajmi va amalga oshirilishni iqtisodiy asoslangan, qonunchilik hamda standartlar talabi asosida ishlab chiqilgan loyiha – smeta hujjatlari; investitsiyani amalga oshiradigan biznes-reja [29].

N.I.Laxmetkina investitsion loyihaning asosiy xususiyatlari va uni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan real investitsiyani asoslovchi hujjat, deb ta'riflagan [32].

Investitsion loyihaning keng qamrovli ta'rifini V.M.Koshalev ifodalagan. Unga ko'ra «Investitsion loyiha – bu barpo etilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan ob'ektlar, texnologik jarayonlar va ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlar, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarni yaratish bilan bog'liq tadbirlar va boshqaruv qarorlari bajarilishini o'z ichiga oladigan maqsad tizimidir» [31].

Investitsion loyihalar ta'rifiga doir qarashlarda investitsion loyihaning turli xususiyatlarini qamrab olgan fikrlar turlicha bo'lishiga qaramay, ular ko'p jihatdan bir-biriga yaqin.

Fikrimizcha, investitsion loyiha ma'lum harakatlarni amalga oshiruvchi, ya'ni kelgusida foyda olish maqsadida kapital qo'yilishiga asoslangan, tashkiliy-huquqiy va moliyaviy hisob-kitob hujjatlari majmuasidir.

Korxona o'zini investitsion imkoniyati va faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqgan holda loyihalarni ishlab chiqadi. Investitsion loyihalar turli belgilarga qarab tasniflanadi.

Hozirgi kunda investitsion loyihani tasniflanishiga doir turli yondashuvlar, qarashlar mavjud. Jumladan, V.V.Tsarev investitsion loyihani hajmi, kutilayotgan samara, pul oqimi va tavakkalchilik munosabatiga ko'ra, turlarga bo'ladi [34].

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham investitsion loyihalarning turli jihatlari ochib berilgan [33, 35, 36, 41, 43, 46]. Jumladan, A.S.Juraevning ilmiy tadqiqot ishida, investitsion loyihalar firmani yangilash va kengaytirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, moliyaviy aktivlarga egalik qilish, yangi xizmat va bozorlarni o'zlashtirish hamda nomoddiy aktivlarga egalik qilish yo'nalishi bo'yicha tasniflanishi o'z ifodasini topgan [43].

Investitsion loyihani tasniflanishiga doir tadqiqotlarning qiyosiy tahlili, ularni o'zaro o'xshash yoxud shakl jihatdan farq qilsada, mazmunan bir xil yoki juda yaqinligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, investitsion loyihalar 1.2-rasmda keltirilgan tarzda tasniflanishi lozim.

Rasmda ifodalangan iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi investitsion loyihalarning har biri korxonaning tijorat faoliyatida foyda olishga qaratilgan.

Xorijiy va mamalakatimiz iqtisodchi olimlarning deyarli barchasining ilmiy ishlarida, investitsion loyiha samaradorligini baholashda vaqt mezonini hisobga oladigan quyidagi ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etilgan:

Корхонанинг инвестицион лойиҳалари таснифи

Корхонани иқтисодий самарадорлигини таъминланишига кўра инвестицион лойиҳалар:
- маҳсулот ҳажмини ўсишини таъминлайдиган;
- маҳсулот турларини кенгайтиришини таъминлайдиган;
- маҳсулот сифатини оширишни таъминлайдиган;
- маҳсулот таннархини пасайтиришни таъминлайдиган;
- янги ишлаб чиқаришларни барпо этиш;
- мавжуд технологияларни такомиллаштириш;
- меҳнат ва бошқарувни ташкил этишни яхшилаш;
- санация (корхонани молиявий соғломлаштириш).

Амалга ошириш муддатига кўра инвестицион лойиҳалар:
- қисқа муддатли;
- ўрта муддатли;
- узоқ муддатли.

Молиялаштириш манбааларига кўра инвестицион лойиҳалар:
- ички имкониятлар ҳисобига амалга ошириладиган;
- акциялар эмиссияси ҳисобига молиялаштириладиган;
- тижорат банкларини кредити ҳисобига молиялаштириладиган;
- хорижий молиявий институтлар ҳисобига молиялаштириладиган;
- аралаш молиялаштириш шаклидаги.

Таваккалчилик муносабатига кўра инвестицион лойиҳалар:
- таваккалчиликли; - таваккалчиликсиз.

Инвестицион ресурслар ҳажмига кўра инвестицион лойиҳалар:
- кичик; - ўрта; - йирик.

Инвестицион лойиҳанинг амалга оширилишига кўра:
- бошқа инвестицион лойиҳаларни амалга оширишига боғлиқ бўлмаган инвестицион лойиҳа;
- бошқа инвестицион лойиҳаларни бажарилишига боғлиқ бўлган инвестицион лойиҳа;
- бошқа инвестицион лойиҳа ўрнига амалга ошириладиган инвестицион лойиҳа.

1.2-rasm. Investitsion loyihalarning tasniflanishi

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1. Diskontlash bo’yicha baholashga asoslangan dinamik usullar:

- investitsion loyihaning samaradorligini diskontlashning sof joriy qiymat usuli asosida baholash – NPV (Net Present Value);
- investitsion loyihaning samaradorligini diskontlashning investitsiya rentabellik indeksi asosida baholash – PI (Profitability index);
- investitsion loyihaning samaradorligini diskontlangan daromadning ichki me'yori usuli asosida baholash – IRR (Internal Rate Index);
- investitsion loyihaning samaradorligini diskontlashning qoplash muddati usuli asosida baholash – DPP (Discounted Payback Period).

2. Hisoblash bo'yicha baholashga asoslangan statistik usullar:

- investitsiyani qoplash muddati usuli – PP (Payback Period);
- investitsiya rentabellik koeffitsienti usuli – ARR (Accounted Rate of Return) [21, 22, 27,30, 34, 36, 42, 43].

Investitsion loyihani samaradorligini diskontlashning sof joriy qiymat (*SJQ*) usuli investitsiyalashning natijalari to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumot olish imkonini beradi, ya'ni uning mutlaq summasidagi yakuniy samarasini.

Diskontlashning sof joriy qiymati – bu muayyan vaqt oralig'ida daromad va kapital qo'yilmalar orasidagi diskontlangan farqni ifodalaydi. Bu usul iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Jumladan, diskontlangan pul daromadi, sof hozirgi qiymat, sof joriy samara, sof diskontlangan daromad, diskontlanadigan foyda, haqiqiy qiymat, qoldiq qiymat singari.

Investitsion loyiha samaradorligini hisoblashning asosiy mezoni sifatida *SJQ* usulidan foydalanilishning maqsadga muvofiqligi talqin qilinadi.

Investitsion loyihalarning *SJQ* usuli qo'llanishi natijasida investitsion xarajatlar bilan kelajakda olinadigan daromad orasidagi nisbat aniqlanadi. SHuning uchun amaliyotda *SJQ* usulidan keng foydalaniladi.

Pulning vaqt va tavakkalchilik omillari ta'sirida o'zgarishi diskontlash koeffitsienti yordamida hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida o'z qiymatining *SJQ*ga teng miqdorda oshirishdan manfaatdor.

Pulda ifodalangan investitsion loyihani amalga oshirish mobaynida *SJQ* ko'rsatkichi ijobiy (musbat) qiymatga ega bo'lishi dastlabki xarajatlar qoplanishini bildiradi.

Investitsion loyihaning *SJQ* qanchalik yuqori bo'lsa, uning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va bu loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinadi.

Agar investitsion loyihani *SJQ* ko'rsatkichi salbiy (manfiy) qiymatga ega bo'lsa, belgilangan foyda normasi ta'minlanmaydi, ya'ni loyiha samarasiz (zararli) hisoblanadi. Bunday loyihaning tatbiq etilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Investitsion loyihaning *SJQ* nolga tengligi, uni faqatgina kapital xarajatlar qoplanishi va foyda keltirmasligini bildiradi. Bu xildagi loyihalarning ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq emas.

Pul oqimlari vaqtga bog'langan holda taqsimlanganligi sababli diskontlashtirish foiz stavkalari (r) bo'yicha amalga oshiriladi. SHu nuqtai nazardan, diskontlash stavkasi darajasining to'g'ri asoslanishi muhim hisoblanadi.

Investitsion xarajatlar bir yo'la amalga oshirilganda investitsion loyihaning ($SJQ_{b.y.}$, so'm) ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$SJQ_{b.y.} = \sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+r)^n} - IX_{b.y.} \qquad (1.2)$$

bu erda, SPO_t – alohida shakldagi investitsion loyihalar amalga oshirilgandagi sof pul oqimlari summasi;

$IX_{b.y}$ – investitsion loyihalarning bir yo'la amalga oshirilgandagi investitsion xarajatlar summasi;

t – hisoblash davridagi n intervallar soni.

Investitsion xarajatlar bir necha bosqichda amalga oshirilsa, u holda investitsion loyihaning ($SJQ_{b.n.}$) quyidagicha hisoblanadi:

$$SJQ_{b.n.} = \sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+r)^n} - \sum_{t=1}^{n} \frac{IX_t}{(1+r)^n} \qquad (1.3)$$

bu erda, IX_t – investitsion loyihadan foydalanish davridagi intervallar bo'yicha investitsion xarajatlar summasi.

SJQ usulidan foydalanilganda tizimlashtirilgan ko'rinishdagi asosiy yutuqlar va kamchiliklar 1-ilovada keltirilgan.

Investitsion loyihaning samaradorligini diskontlashning investitsiya rentabellik indeksi (*RI*) usuli. Bu usul loyiha bo'yicha investitsion xarajatlar hajmi bilan kutilayotgan sof pul oqimi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash imkonini beradi.

Investitsiya *RI* adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Jumladan, foydalilik indeksi, daromadlilik indeksi, muvaffaqiyatlar indeksi, qo'yilgan kapitalning daromadlilik indeksi, sof diskontlangan daromad koeffitsienti, xarajat birligiga daromad va boshqalar.

Bu usul *SJQ* usulini takomillashtirilgan usuli sifatida ham qaraladi. *RI* usuli *SJQ* usulidan nisbiy kattalik orqali hisoblanishi bilan farqlanadi. *SJQ* esa absolyut (mutlaq) kattalikda hisobga olinadi.

Investitsiya *RI* jalb etilgan kapital qo'yilmalarning samarali foydalanish darajasini aks ettiradi. YUqori *RI* ga ega bo'lgan investitsion loyihalar amalga oshirish uchun qabul qilinadi.

Investitsiya *RI* ko'rsatkichini hisoblashda investitsiya daromadi sifatida foyda emas, balki pul oqimi qabul qilinadi.

Investitsiya bir yo'la amalga oshirilganda ($RI_{b.y.}$) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$RI_{b.y.} = \frac{\sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+r)^n}}{IX_{б.ў.}} \qquad (1.4)$$

Investitsion xarajatlar bir necha bosqichda amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa, u holda investitsion loyihaning ($RI_{b.n.}$) quyidagicha hisoblanadi:

$$RI_{b.n.} = \frac{\sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+r)^n}}{\sum_{t=1}^{n} \frac{IX_t}{(1+r)^n}} \qquad (1.5)$$

Investitsion loyihalarni *SJQ* va *RI* ko'rsatkichlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ularning ikkalasi ham o'zaro to'g'ri bog'lanishda, ya'ni *SJQ*ni absolyut qiymati oshsa, *RI*ni ham qiymati oshadi va aksincha. Xususan, *SJQ*ni nolinchi qiymatida *RI* qo'rsatkichi birga teng bo'ladi.

SHuning uchun investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi mezoni sifatida *SJQ* yoki *RI*dan bittasini tanlash lozim.

Investitsion loyihalarni nisbiy baholash orqali taqqoslashda, bir vaqtning o'zida ikkala ko'rsatkichni ko'rib chiqish kerak. Bu o'z navbatida investitsion loyiha samaradorligini turli tomondan baholash imkonini beradi.

RI usulidan foydalanilganda tizimlashtirilgan ko'rinishdagi asosiy yutuqlar va kamchiliklar 1-ilovada keltirilgan.

Daromadning ichki me'yorini (*DIM*) hisoblash usuli. *DIM* investitsion loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu usul iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rentabellikning ichki me'yori, investitsiyani qoplashning ichki me'yori, foydaning foiz me'yori, pulning diskontlangan real oqimi va boshqalar. *DIM* deb, loyihaning *SJQ* 0 ga teng bo'lgan foiz stavkasi tushuniladi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida, kapital qo'yilmalarni tahlil qilishning dastlabki bosqichi sifatida *DIM* ko'rsatkichidan foydalaniladi. Loyihalarni tanlovida keyingi bosqichga *DIM* ko'rsatkichi 10–20%dan kam bo'lmagan investitsion loyihalar tanlab olinadi.

Fikrimizcha, bu mezon investitsiyadan pul oqimini, kelajakdagi qiymatini diskont stavkasi bilan belgilangan investitsion mablag'larni hozirgi qiymatiga keltirilgan aniq bir investitsion loyihaning daromadlilik darajasini ifodalaydi.

*DIM*ni investitsion loyihani foydaliligini kafolatlangan quyi darajasi, deb qarash ham mumkin.

Agar *DIM* to'qimachilik tarmog'i kapitalini o'rtacha qiymatidan yuqori va loyiha bo'yicha tavakkalchilik darajasi inobatga olingan holda, loyiha iqtisodiy samarali, deb hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, *DIM* loyihaga jalb etilayotgan moliyalashtirish manbalari uchun maksimal to'lov stavkasi bilan bog'liqlikni bildiradi. Bunga investitsion xarajatlar samaradorligini baholashda kredit bo'yicha maksimal stavka belgilanishini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, *DIM* «to'siq ko'rsatkichi» hisoblanadi: agar kapitalning qiymati *DIM* ko'rsatkichining sonli qiymatidan yuqori bo'lsa, bunday investitsion loyiha rejalashtirilgan darajadagi pulni ko'paytirish va sarflangan mablag'ni qaytarish uchun etarli bo'lmaydi. Demak, bunday turdagi investitsion loyihalar qabul qilinmaydi.

Shu nuqtai nazardan, *DIM* ko'rsatkichidan investitsion loyihalarni solishtirma iqtisodiy baholashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Amaliyotda *DIM* qiymati diskontning belgilangan me'yori (*r*) bilan taqqoslanadi. Bunda $DIM > r$ bo'lganda investitsion loyiha samarali hisoblanadi, *SJQ*ni ijobiy qiymatini ta'minlaydi. Aks holda, ya'ni $DIM < r$ bo'lganda, kapital xarajatlar daromaddan oshadi, investitsion loyiha esa samarasiz hisoblanadi.

DIM qiymatining oshib borishi investitsion loyihani amalga oshirishdagi tavakkalchilik darajasining oshishiga olib keladi.

Investitsiya jalb qilinganda *DIM* quyidagi tenglamani echish asosida aniqlanadi:

$$SJQ_{b.y.} = \sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+DIM_s)^n} - IX_{b.y} = 0 \qquad (1.6)$$

yoki

$$SJQ_{b.y.} = \sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+DIM_s)^n} = IX_{b.y.} \qquad (1.7)$$

bunda, DIM_s – daromadning ichki me'yori stavkasi.

DIM asosida samaradorlikni aniqlashda quyidagi shart bajarilishi talab etiladi: hisoblanayotgan investitsion loyihani *DIM* o'rnatilgan daromadlilik stavkasidan yuqori bo'lsa, loyiha samarali, aks holda samarasiz hisoblanadi.

Investitsiya bir necha bosqichda jalb qilinganda *DIM* quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$SJQ_{b.n.} = \sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+DIM_s)^n} - \sum_{t=1}^{n} \frac{IX_t}{(1+DIM_s)^n} \qquad (1.8)$$

DIM usulidan foydalanilgandagi tizimlashtirilgan ko'rinishdagi asosiy yutuqlar va kamchiliklar 1-ilovada keltirilgan.

Investitsion loyihani qoplash muddati (*QM*) usuli. Investitsion loyihalar samaradorligini baholovchi *QM* keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. *QM* amalga oshirilgan investitsiyaning (kapital qo'yilmani) qaytarilishi kutilayotgan yili sifatida ifodalanadi.

Amaliyotda muqobil investitsion loyihalarning samaradorlik darajasini baholashda *QM*dan dastlabki mezon sifatida foydalaniladi.

Likvidlik bilan bog'liq investitsion tavakkalchilik darajasini baholash va kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlashda *QM*dan foydalanish mumkin. YA'ni loyihani amalga oshirishda *QM* qanchalik ko'p bo'lsa, investitsion tavakkalchilik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Demak, belgilangan *QM*dan kam bo'lgan har qanday investitsion loyihalar amalga oshirish uchun qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyani *QM*ni yagona me'yori mavjud emas.

Investitsiyani *QM,* odatda, yillar bo'yicha o'lchanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda *QM* oddiy va diskontlangan turlariga ajratiladi.

Agar dastlabki investitsiya (kapital qo'yilma) loyihasini amalga oshirish davomida yillik pul oqimlari o'zaro teng bo'lsa, investitsiyani *QM* quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$QM = \frac{K_h}{P_o} \qquad (1.9)$$

bu erda, K_h – investitsion loyihadagi kapital qo'yilmalar hajmi, m.so'm;
P_o – yillik pul oqimlari (daromad) miqdori, m.so'm.

Fikrimizcha, bu usuldan foydalanish ba'zi muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Jumladan, investitsiyani *QM* sof foyda qiymati bo'yicha emas, balki yalpi foyda hisobida amalga oshiriladi.

Amaliyotda barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lagandan keyin korxona ixtiyorida qolgan mablag'lar majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga etarli bo'lmasligi mumkin. Bunday sharoitda investitsiyani *QM* o'z mohiyatini yo'qotadi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda korxona o'zini mablag'i hamda jalb etilgan mablag'lardan foydalanishi mumkin. Odatda, oddiy *QM* bo'yicha hisoblash ishlari amalga oshirilganda o'z mablag'i yoki qarzga olingan kapitalni turli xildagi bahosi hisobga olinmaydi. Bu esa ushbu usulning kamchiligi sifatida qaraladi.

Investitsion loyihaning diskontlangan qoplash muddati (*DQM*) – bu investitsion loyihani amalga oshirishidan boshlab, ijobiy iqtisodiy samaraga erishguncha bo'lgan qisqa vaqt intervalini bildiradi.

Diskontlangan daromadlar summasi hisobidan kapital xarajatlarni qancha vaqtdan keyin qoplanishi, *DQM* ko'rsatadi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$DQM = \frac{\sum_{t=1}^{n} \frac{IX_t}{(1+r)^n}}{\sum_{t=1}^{n} \frac{SPO_t}{(1+r)^n}} \qquad (1.10)$$

Bu formuladan investitsion loyihani butun hayotiy tsikli davomida diskontlangan pul oqimlari bir maromda bo'lgan holda, foydalanish maqsadga muvofiq. Agar yillik pul tushumlari bir maromda bo'lmasa, hisoblash boshqa

tarzda amalga oshiriladi. Bunda har bir alohida intervallarda dastlabki xarajatlardan keyingi yilgi pul oqimlari xarajatlari manfiy qiymatga ega bo'lgunga qadar ayirilib boriladi.

Fikrimizcha, bu ko'rsatkichni asosiy kamchiliklaridan investitsiyani *QM* tugagandan keyingi davrdagi pul oqimi (tushumi)ni hisobga olmasligi sanaladi.

QM usulining tizimlashtirilgan ko'rinishdagi asosiy yutuqlar va kamchiliklari 1-ilovada keltirilgan.

Investitsiya rentabellik koeffitsienti (*RK*) usuli. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion loyihaning *RK* foydaning hisob me'yori, deb ham yuritiladi.

Bu usul o'ziga xos ikkita xususiyatga ega. Birinchidan, u daromad ko'rsatkichlarini diskontlashtirishni nazarda tutmaydi. Ikkinchidan, daromad, sof foyda ko'rsatkichlarini ifodalaydi (o'rtacha yillik pul tushumidan ($\overline{ПТ}_ü$) o'rtacha yillik amortizatsiya ($\overline{A}_ü$) summasining ayirmasi). Investitsiyani *RK*ni hisoblash algoritmi juda sodda bo'lganligi sababli amaliyotda keng qo'llanilishi imkoniyati mavjud. Investitsiyaning *RK* o'rtacha yillik foydani ($\overline{ПТ}_ü - \overline{A}_ü$) investitsiyaning o'rtacha miqdoriga ($\overline{I} - QT_Q$) bo'lish orqali hisoblanadi.

Investitsiyaning o'rtacha miqdori, dastlabki kapital qo'yilmadan investitsion loyihaning foydalanish muddatidan keyingi barcha kapital xarajatlar hisobdan chiqarilgandagi summani ikkiga bo'linishi sifatida aniqlanadi.

Agar loyihada qoldiq yoki tugatish qiymati (QT_Q) ko'zda tutilgan bo'lsa, bu hol hisoblashda inobatga olinadi.

Investitsiyaning *RK* quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$RK = \frac{\overline{PT}_y - \overline{A}_y}{0{,}5 \times (\overline{I} - QT_Q)} \qquad (1.11)$$

Fikrimizcha, investitsiyaning *RK* usuli bir qator kamchiliklarga ega. Jumladan, u pul oqimining vaqtga bog'liqligini hisobga olmaydi.

Investitsion loyihalar samaradorligi mezonini to'g'ri tanlanishi investitsiyani yo'naltirish jarayonida muhim bosqich hisoblanadi. *SJQ* va *DIM* investitsion loyihalarni baholashning istiqbolli mezonlari qatoriga kiradi.

Korxonalar ishlab chiqarish – iqtisodiy imkoniyatlarini investitsion takliflarni hisobga olgan holda, tahlil va ekspertiza qilishi asosida, o'zining investitsion strategiyasini tanlashi lozim.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiyaning investitsion faoliyat rivojlanishining nazariy asoslariga bag'ishlangan ushbu bobi bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, «investitsion faoliyat» va «investitsiya» kabi iqtisodiy kategoriyalariga berilgan ta'riflar sharhlanib, ushbu tushunchalarga mualliflik nuqtai nazaridan yondashilgan holda yangicha ta'rif berildi. Unga ko'ra «investitsion faoliyat» - iqtisodiy tizimdan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini tashkil etish va o'zaro muvofiqlashtirishdir, «investitsiya» - bu foyda olish maqsadida, kapitalni barcha turlarini xo'jalik faoliyatining turli ob'ektlariga kiritilishi hamda bozor tamoyillariga asoslangan tavakkalchilik, likvidlik va vaqt omiliga bog'liq holda iqtisodiy yoki noiqtisodiy samara olishdir.

Ikkinchidan, mazkur bobda investitsion jarayoni ishtirokchilari (investorlar, tijorat banklari, kredit muassasalari, davlat, korxonalar va boshqa moliyaviy institutlar) uchun iqtisodiy axborot manbai bo'lib, investitsiyaga doir qarorlarni qabul qilish uchun xizmat qiluvchi muallif nuqtai nazaridan yondashilgan holda investitsiyaning tasnifi ishlab chiqildi. Investitsiyaning yangicha tasnifi quyidagi elementlarini o'z ichiga oladi: kapital qo'yilish ob'ektlari; investitsion jarayonlarda ishtirok etish xususiyati; takror ishlab chiqarish yo'nalishi; daromadlarning bog'liqlik darajasi; investor-korxonalarga bo'lgan munosabati; amalga oshirish muddati; birgalikda amalga oshirilishi; daromadlilik darajasi; tavakkalchilik darajasi; likvidlik darajasi; investitsiyalanadigan kapitalni mulkchilik shakli; investitsiyalash jarayonida kapitalni ishlatilishi; hududlar bo'yicha kapitalni jalb

etish manbalari; investitsiyalanadigan kapitalni hududlar (bozorlar) bo'yicha yo'naltirilishi; korxonani aktivlarini yaratishi; tarmoq bo'yicha yo'naltirilishi; o'zaro bog'liqlik darajasi; qo'shimcha investitsiya; joriy investitsiya.

Uchinchidan, ushbu bobda «investitsion jozibadorlik» kategoriyasiga berilgan ta'riflar sharhlanib, mualliflik nuqtai nazaridan yondashilgan holda yangicha ta'rif berildi. Unga ko'ra «investitsion jozibadorlik» – bu to'lov qobiliyatiga ega investitsiyaga talab, turli ob'ektiv belgilar, xususiyatlar, mablag'lar, tizim imkoniyatlari jamlamasidir.

To'qimachilik tarmog'ining investitsion jozibadorlik darajasiga imkoniyat va tavakkalchilik omillari qatoriga investitsion faoliyatga doir qonunchilik omilini kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Tarmoqning etarli darajadagi investitsion jozibadorligi real investitsiya asosidagi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, ta'mirlash va qayta jihozlash tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

To'rtinchidan, ushbu bobda investitsion loyihani tasniflanishiga doir tadqiqotlarning qiyosiy tahlili asosida, korxonaning tijorat faoliyatida iqtisodiy samaradorlik va foyda olishni ta'minlovchi investitsion loyihalarni mualliflik tasnifi ishlab chiqildi.

Beshinchidan, investitsion loyiha samaradorligini baholashda quyidagi ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Diskontlash bo'yicha baholashga asoslangan dinamik usullar: sof joriy qiymat; rentabellik indeksi; daromadning ichki me'yori; qoplash muddati.

2. Hisoblash bo'yicha baholashga asoslangan statistik usullar: investitsiyani qoplash muddati va investitsiya rentabellik koeffitsienti.

II-BOB. TO'QIMACHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISH HOLATINI TAHLILI VA MOLIYAVIY HOLATINI TADQIQI

2.1. To'qimachilik tarmog'ining rivojlanish holati

Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan Respublikamiz to'qimachilik tarmog'i paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha jahonda etakchi o'rinlarni egallaydi.

Hozirgi kunda jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. O'zbekiston xom paxta tolasini ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi (XXR), Hindiston, Pokiston va AQSHdan keyin beshinchi o'rinni egallaydi.

Hozirgi kunda to'qimachilik mashinasozligi korxonalari Evropa va XXR da joylashgan. Bu erda ishlab chiqaradigan texnologik jihozlarni sifat ko'rsatkichlari boshqa mamlakatlarda ishlab chiqariladigan jihozlarga nisbatan ancha yuqori. Keyingi yillarda mamlakatimizda barpo etilayotgan to'qimachilik sohasidagi korxonalarga Evropa dastgohlari bilan jihozlanmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Buning asosiy sabablariga quyidagilarni: jahon bozorida paxta tolasidan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talabning oshib borishi; to'qimachilik sohasini rivojlantirish uchun tabiiy shart-sharoitlar, ishchi kuchi va moddiy bazani mavjudligi; paxtadan tayyorlanadigan mahsulotlarni eksport qilish orqali davlat byudjetiga erkin almashtiriladigan valyuta tushumini ko'paytirish imkoniyatining yaratilishi; qo'shimcha yangi ish joylarini barpo etilishi va shu kabi boshqa omillarni kiritishimiz mumkin.

Paxtadan tayyorlanadigan mahsulotlarni miqdorini ko'paytirish, uning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro andozalar talablari darajasiga etkazish, korxonalarni

eksport salohiyatini oshirish to'qimachilik tarmog'ining oldida turgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarning hal etilishi respublikamizdagi ip yigiruv korxonalarini etarli miqdorda tola, to'qish va trikataj korxonalarini esa ip bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

To'qimachilik tarmog'ini rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega. Jumladan, o'zaro uzviy bog'langan quyidagi tarkibiy tuzilmalarni samarali faoliyat ko'rsatishiga bog'liq: paxtani qabul qilish, tayyorlash va dastlabki qayta ishlovchi; ipni ishlab chiqaruvchi; iste'mol tovarlarini (tuquv va trikataj matolari va tayyor mahsulotlarni) ishlab chiqaruvchilar.

Qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymati bo'yicha salmog'i 2000 yilda 101,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 1381,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. Barpo etilayotgan korxonalar mamlakatimizdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda ham o'zini salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, 2012yilga kelib 28283ta ichshi xodimlar to'qimachilik tarmog'ida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

To'qimachilik tarmog'iga 2005-2012 yillar mobaynida kiritilayotgan investitsiya dinamikasi 2.1 – rasmda keltirilgan.



2.1-rasm. To'qimachilik tarmog'iga 2005 – 2012 yillar mobaynida kiritilayotgan investitsiya dinamikasi, foizda

Manba: «O'zbekengilsanoat» DAK ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, xorijiy investitsiyalar asosan 2005-2009 yillar orasida zamonaviy ip yigiruv, to'qish va trikotaj korxonalarini barpo etishga yo'naltirilgan bo'lsa, 2012 yilda tikuv va tikuv trikotaj korxonalarni bunyod etishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida to'qimachilik tarmog'ida ip va matolarni sanoat asosida ishlab chiqarish, ularni samaradorligini yanada oshirish, xususan, mahsulot sifatini va xom ashyo resurslaridan foydalanishni tubdan yaxshilash, mahsulot tannarxini pasaytirish, korxonalarning zarar keltirib ishlashini bartaraf etish kabi muammolarni hal etishga qaratish lozim.

Natijada xorijiy, asosan, Evropa va XXR da ishlab chiqarilgan dastgohlar bilan jihozlangan ip yigiruv va trikotaj korxonalarining barpo etilishi, tarmoq ishlab chiqarish quvvatlarini oshiradi hamda jahon standartlari talabiga mos keladigan raqobatbardosh ip va matolarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Bu vazifalar xorijiy investitsiyalar asosidagi zamonaviy ip yigiruv hamda to'qish va trikotaj korxonalarini loyihalashtirish va ishga tushurish natijasida amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, to'qimachilik tarmog'ini barqaror rivojlanishi quyidagi masalalarni hal etilganlik darajasiga bog'liq:

- tarmoqda yangi texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan korxonalarni barpo etish, texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish natijasida, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, yalpi ichki mahsulotda uning hissasini oshirish, faol investitsion siyosatni yuritish;
- ishlab chiqarishni mahalliylashtirish maqsadida tarmoq korxonalariga o'z kapital qo'yilmalari va chet el investitsiyalarini yo'naltirish;
- tarmoqni rivojlantirishda kasanachilik xizmatidan keng foydalanish;
- paxta tolasidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni uzluksiz sotilishiga erishish;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va turini kengaytirish natijasida tarmoqning eksport imkoniyati hamda mahsulotning tashqi

bozorda raqobatbardoshligini oshirish lozim.

Nazarimizda, bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik tarmog'ini modernizatsiyalashda investitsiyani quyidagi maqsadlar uchun yo'naltirish dolzarb hisobladi: zamonaviy texnika va jihozlarni arzon bahoda sotib olish; yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni eksport qilish; texnik va texnologik dastgohlarni yangilashda vaqtdan yutish; ichki talabni oshirish; ishlab chiqariladigan mahsulot nomenklaturasini diversifikatsiyalash.

2.2. To'qimachilik tarmog'idagi korxonalarning moliyaviy holatini tadqiqi

Iqtisodiyotni moderniztsiyalash sharoitida aktsiyadorlik jamiyatlari mulkchilik shakli asosida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda aktsiyadorlar uchun korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlik muhim hisoblanadi. Bu ma'lumotlar aktsiyadorlarga korxonani divident siyosati, mulklarni saqlanishi, korxonaning istiqbollari kabi ma'lumotlar olish bilan bir qatorda ayrim hollarda korxonani bankrotlik holatiga tushishi holatini tashxis qilish hamda boshqaruv tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritishiga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda korxonalarni moliyaviy holatini belgilovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Ular qatoriga sotish rentabelligi, aktivlarning aylanuvchanligi, asosiy vositalarning aylanuvchanligi, debitor qarzlarning aylanuvchanligi, qoplash koeffitsentlarini kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Prezidentimiz I.A. Karimov o'z ma'ruzalarida ta'kidlaganidek "...to'lanmay qolgan qarzlari tufayli banklarning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasida tijorat banklarining faoliyati yuksak baholashga molikdir.

Biz joriy etgan bunday mexanizm bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va

texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo'shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o'rinlarini qayta tiklash va yangi ish o'rinlarini yaratishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga berilgan 147 ta bankrot korxonaning 140 tasida ishlab chiqarish qayta tiklangani, ularning 64 tasi yangi investorlarga sotilgani bu fikrning yorqin dalilidar. Qayd etish kerakki, banklar tomonidan bu korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash uchun 156 milliard so'm miqdorida investitsiya yo'naltirildi, 21 mingdan ko'proq ish o'rni tashkil etildi".

Respublikamizda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida" gi qonunga asosan mulkida davlat ulushi mavjud bo'lgan hamda yirik korxonalarning iqtisodiy tavakkalchilik va nochorlik alomatlarini moliyaviy tashxis o'tkazish yo'li bilan aniqlash maqsadida korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini monitoring tartibi va tahlil qilish ko'rsatkichlari keltirilgan.

Korxonalarni moliyaviy holatini belgilovchi ko'rsatkichlar tarkibiga quyidagi mezonlar kiritilgan:

- to'lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsienti;
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;
- aktivlarning va xarajatlarning rentabelligi koeffitsienti.

SHuningdek, yakuniy qaror qabul qilish uchun, quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin:

- o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larning nisbat koeffitsienti;
- quvvatdan foydalanish koeffitsienti;
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti.

Bu o'rinda korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini baholash maqsadida iqtisodiy tahlil qilinishi lozim bo'lgan korxonalarni tanlash uchun asosiy ko'rsatkich qilib:

- pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha ularni to'lash kunidan uch oydan ortiq muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining mavjudligi;
- to'lov qobiliyatiga ega emslik, ya'ni korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini joriy aktivlari bilan qoplay olmasligi;
- past rentabellik yoki zararlilik.

Pullik majburiyatlar va majburiy to'lovlar bo'yicha ularni to'lash muddati kelgan kundan boshlab uch oydan ortiq muddati o'tgan qarz qonun xujjatlari yoki shartnomalarga muvofiq majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyatlar va kreditorlarning pullik majburiyatlar bo'yicha talablarni amalga oshirish vaqtidan boshlab belgilanadi (masalan, byudjetga soliqlarni hisobot davridan keyingi ma'lum sanaga har oy yoki har chorakda to'lash muddatlari).

Muddati uch oydan o'tgan qarz haqidagi ma'lumotlar "Buxgalteriya balansi" 1-son hisobot shakli yoki "Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumot" 2-a moliyaviy hisobot shaklida aks ettiriladi.

To'lov qobiliyati koeffitsienti nafaqat debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish va tayyor mahsulotni qulay sharoitda sotish, balki boshqa joriy aylanma aktivlar elementlari yordamida korxonani to'lov qobiliyatini hisoblash imkonini beradi. Bu koeffitsientning kamayishi korxona to'lov imkoniyatlarining pasayganligidan dalolat beradi. Agar to'lov qobiliyati koeffitsienti hisobot davri so'ngida 1,25 dan past qiymatga ega bo'lsa, korxona to'lov qobiliyatiga ega emas deb hisoblanadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti moliyaviy mustahkamlik, korxona egalari va kreditorlar manfaatlari uchun zarur bo'lgan korxonaning o'z aylanma mablag'larining mavjudligidan dalolat beradi. Bu koeffitsient hisobot davri oxirida 0,2 dan kam qiymatga ega bo'lsa, u holda korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha nochor hisoblanadi.

Rentabellik koeffitsienti korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining foydalilik darajasini ko'rsatadi. Hisobot davrida rentabellik koeffitsienti noldan

past qiymatga ega bo'lsa (manfiy ko'rsatkich), korxona zarar ko'rayotgan, 0,05 dan past qiymatda rentabelsiz hisoblanadi.

O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsienti (joriy moliyaviy mustaqillik) qarz mablag'larini o'z manbalari orqali qaytarish bilan t'minlanganlik darajasini belgilaydi. Bu koeffitsientning hisobot davri so'ngidagi qiymati noldan past bo'lsa, bu hol korxonada moliyaviy xavf mavjudligidan dalolat beradi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti yordamida korxonani ishlab chiqarish quvvatlarining yuklanganlik darajasi aniqlanadi. Agar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti hisobot davrida 0,5 dan yoki o'rtacha tarmoqnikidan past bo'lsa, u holda korxona ushbu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy nochor hisoblanadi.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti asosiy fondlarning davr mobaynidagi ulushini bildiradi. Eskirish koeffitsientining ko'rilayotgan davr oxirida 0,5 qiymatidan oshishi, asosiy vositalarni ancha eskirganligini bildiradi.

Tadqiqot jarayonida "SHovot tekstil" va "Bog'ot tekstil" ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlarini moliyaviy hisobotlaridagi ko'rsatkichlardan foydalanilgan holda 2011-2012 yillar uchun moliyaviy holatni belgilovchi koeffitsientlar hisoblab chiqildi (2.1-jadval).

2.1-jadval

Korxonalarni moliyaviy holati ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichning nomi	Hisoblash natijalari			
		SHovot tekstil		Bog'ot tekstil	
		2011	2012	2011	2012
1.	Sotish rentabelligi	0,9	0,7	0,5	0,4
2.	Aktivlarning aylanuvchanligi	58,4	105,2	33,4	37,9
3.	Asosiy vositalarning aylanuvchanligi	14,7	23,5	1,3	1,6
4.	Debitor qarzlarning aylanuvchanligi	2,9	5,3	18,3	29,2
5.	Qoplash koeffitsentlarini	1,11	0,79	0,97	0,95

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, tadqiq etilayotgan korxonalarda asosiy faoliyat bo'yicha xususiy kapitalning rentabellik darajasi, to'lov qobiliyati qoniqarli darajada. Shu bilan birga korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarning kamaytirilishi yo'nalishida tegishli chora-tadbirlar olib borilishi lozim ekanligi aniqlandi. Bu muammoning asosiy sabablari qatoriga korxonalar faoliyatini o'ziga xosligi, ya'ni ish tartibining mavsumiyligi sababli o'zaro hisoblashishlar tezkorligi nisbatan pasayganligi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini yaxshilash uchun quyidagilar qilinishi kerak:

- jamiyat egaligidagi yuqori likvidli aktivlar ulushini oshirish;
- investitsion jarayonini faollashtirish zarur;
- asosiy ishlab chiqarish vositalarini modernizatsiyalash va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish.
- asosiy ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi past darajada bo'lgani uchun 2011 yilda olingan sof foydaning katta qismi noasosiy faoliyat turidan – baza orqali moddiy-texnik ta'minotni amalga oshirishdan olingan. Kelajakda xom-ashyo ta'minotining muqobil manbalari topilganda korxonaning texnik salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyati tug'iladi. Demak, jamiyat sof foydasini sezilarli darajada oshirish uchun umumiy sotish xajmlariga nisbatan ancha kichik xajmlarda bo'lsa ham qo'shimcha faoliyat turlarini kengaytirish kerak.

Jumladan, korxona ustavida ko'rsatilgan holda o'z faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan:

- chakana va ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish, chakana savdo do'konlarini tashkil etish;
- uskunalarni, asboblarni, anjomlarni va ishlab chiqarish maqsadlariga boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish, omborxona, xizmat va boshqa binolarni hamda maydonlarni, idishlarni, konteynerlarni hamda transport vositalarini ijaraga berish, lizing xizmatlarini bajarish;
- tikuvchilik va tikuv trikotaj tsexlarini barpo etish, mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish;

- xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish;
- korxona savdo uylarini tashkil qilish, shuningdek, savdo uyidagi savdo o'rinlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berish;
- issiqxonalar va limonariylar qurish, ulardan foydalanish va etishtirilgan mahsulotlarni sotish;
- qishloq xo'jalik, shu jumladan, chorvachilik va parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni sotish;
- shartnoma asosida avtotransport xizmati ko'rsatish.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarning amalga oshirilishi korxonalar moliyaviy holatini yanada mustahkamlaydi, jozibadorligini oshiradi va tarmoq istiqboli porloq bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Bizning fikrimizcha, to'qimachilik tarmog'ini barqaror rivojlanishi quyidagi masalalarni hal etilganlik darajasiga bog'liq:

- tarmoqda yangi texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan korxonalarni barpo etish, texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish natijasida, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, yalpi ichki mahsulotda uning hissasini oshirish, faol investitsion siyosatni yuritish;
- ishlab chiqarishni mahalliylashtirish maqsadida tarmoq korxonalariga o'z kapital qo'yilmalari va chet el investitsiyalarini yo'naltirish;
- tarmoqni rivojlantirishda kasanachilik xizmatidan keng foydalanish;
- paxta tolasidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni uzluksiz sotilishiga erishish;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va turini kengaytirish natijasida tarmoqning eksport imkoniyati hamda mahsulotning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish lozim.

III-BOB. TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Investitsion loyihalar samaradorligini baholash va tanlash uslublarini takomillashtirish

Hozirgi kunda investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim hisoblangan investitsiya samaradorligini baholash uslubi etarli darajada ishlab chiqilmagan.

Bu muammoning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berish uchun tadqiqot olib borilishi talab etiladi.

Xorijiy amaliyotda loyihalarni investitsiya samaradorligini aniqlashda dissertatsiyaning 1.3. paragrafida keltirilgan uslublardan keng foydalaniladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan korxonalarni investitsion loyihalar samaradorligini aniqlashda, yuqoridagi uslublardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyida «SHovot tekstil» O'zbekiston-Shvetsariya qo'shma korxonasi misolida investitsion loyihani samaradorligini hisoblash uslubini keltiramiz.

Ip yigiruv korxonasi Germaniyada ishlab chiqarilgan yigiruv dastgohlari majmuasini sotib olish asosida barpo etilishi rejalashtirgan. Buning uchun 10849 ming AQSH dollariga teng bo'lgan investitsiya kiritiladi. Diskontlash koeffitsienti 10% bo'lgan hol uchun hisoblash ishlari amalga oshiriladi:

1.) Keltirilgan ma'lumotlarga asosan (1.2) formula yordamida sof joriy qiymat aniqlanadi:

$$SJQ=1858,7/(1+0,1)^0+3509,2/(1+0,1)^1+4396,6/(1+0,1)^2+4582,8/(1+0,1)^3+$$
$$+4599,3(1+0,1)^4+4614,6/(1+0,1)^5+4631,1/(1+0,1)^6+4526/(1+0,1)^7+4503,3/($$
$$1+0,1)^8+4503,3/(1+0,1)^9-10849=16230,5 \text{ ming AQSH dollari.}$$

Xuddi shunday uslubda boshqa ko'rsatkichlarning qiymatlari ham aniqlanadi.

2.) Rentabellik indeksi (1.4) formula yordamida hisoblanadi.

$$RI=16230,5/10849=1,49.$$

3.) Qoplash muddati (1.9) formula yordamida hisoblanadi. Vaqt omili hisobga olinmagan variantda quyidagi hisob ishlari amalga oshiriladi:

1. Uch yil mobaynidagi pul oqimi aniqlanadi.

$$1858,7+3509,2+4396,6=9764,5 \text{ ming AQSH dollari.}$$

2. Dastlabki xarajatni (10849 ming AQSH dollari) to'laligicha qoplash uchun etishmaydigan mablag' summasi hisoblanadi.

$$10849-9764,5=1084,5 \text{ ming AQSH dollari.}$$

3. 10849 ming AQSH dollari miqdordagi mablag'ni qoplash muddati aniqlanadi.

$$1084,5/4582,8=0,23 \text{ kun.}$$

SHunday qilib vaqt bo'yicha pulni haqiqiy qiymatini hisobga olmagan holda investitsiyani qoplash muddati hisoblanadi. *3+0,23=3 yil 23 kun.*

4.) Diskontlangan qoplash muddati (1.10) formula yordamida hisoblanadi. Vaqt omilini hisobga olgan variantda quyidagi hisob ishlari amalga oshiriladi:

1. Uch yil mobaynidagi diskontlangan pul oqimi aniqlanadi.

$$1858,7/(1+0,1)^0+3509,2/(1+0,1)^1+4396,6/(1+0,1)^2=8682,3 \text{ ming AQSH dollari.}$$

2. Dastlabki xarajatni (10849 ming AQSH dollari) to'laligicha qoplash uchun etishmaydigan mablag' summasi hisoblanadi.

$$10849-8682,3=2166,7 \text{ ming AQSH dollari.}$$

3. 10849 ming AQSH dollari miqdordagi mablag'ni diskontlangan qoplash muddati aniqlanadi. $2166,7/4582,8/(1+0,1)^3=0,63$ *kun.*

SHunday qilib vaqt bo'yicha pulni haqiqiy qiymatini hisobga olgan holda investitsiyani diskonlangan qoplash muddati hisoblanadi.

$$3+0,63=3 \text{ yil } 63 \text{ kun.}$$

5) Rentabellik koeffitsienti usuli yordamida hisob ishlarini amalga oshirishda amortizatsiya ajratmasini chiziqli usulidan foydalanildi. Loyihani tugatish qiymati 0 ga teng deb qabul qilingan holda, hisob ishlari (1.11) formula yordamida amalga oshiriladi.

1. Bashorat qilinadigan sof foyda miqdori teng ($B_{s.f}$).

$$B_{s.f}=\left(1858,7/(1+0,1)^0+3509,2/(1+0,1)^1+4396,6/(1+0,1)^2+4582,8/(1+0,1)^3+\right.$$

$+4599,3(1+0,1)^4+4614,6/(1+0,1)^5+4631,1/(1+0,1)^6+4526/(1+0,1)^7+4503,3//$

$(1+0,1)^8+4503,3/(1+0,1)^9)/10 - 10849/10 = 1622,9$ *ming AQSH dollari.*

2. Investitsiyani o'rtacha yillik hajmi ($IX_{o'r}$) investitsiya dastlabki (IX_d) va investitsiya qoldiq qiymatlarini (IX_{qq}) yig'indisini yarmiga teng ko'rinishga ega bo'lgan formula bo'yicha hisoblanadi:

$$IX_{o'r}=\frac{ИX_d + ИX_{qq}}{2} \qquad (3.1)$$

$IX_{o'r}= (10849+0)/2=5424,5$ *ming AQSH dollari.*

3. Investitsiya rentabellik koeffitsienti quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$RK = \frac{B_{s.f}}{IX_{up}} \qquad (3.2)$$

$RK= (1622,9/5424,5)*100=30\%$

Shunday qilib, investitsion loyihani qabul qilish maqsadga muvofiq.

Investitsion loyiha samaradorligini baholash amaliyotida iqtisodiy-matematik usullardan ham foydalaniladi.

Shu nuqtai nazardan, ip yigiruv korxonalari investitsion loyihasini baholashda V.V.Tsarevning keltirilgan usulidan foydalanishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz [34].

Investitsion loyiha samaradorligini iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida baholashda foydalanadigan usullarni har biri samaradorlik ko'rsatkichini ma'lum bir tomonini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar tarkibi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: iqtisodiy samarani oshirishga erishish darajasi; investitsiyani belgilangan qoplash muddatidan oshmasligi; ma'lum darajadagi rentabellik darajasining ta'minlanishi va hokazo. Shu jihatdan ular orasidan samarali varianti tanlab olinadi.

Bu usullar turli mezon va qiymat o'lchovlarida hisoblanishi sababli muqobil variantdagi loyihalar samaradorligini aniqlash imkonini bermaydi. SHuning uchun muqobil investitsion loyihalar samaradorligini baholashda, bir vaqtning o'zida

loyihaning turli mezonlarini hisobga olishga asoslangan iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha bunday xususiyatga ega bo'lgan investitsion loyihani samaradorligini baholashda «ko'p maqsadli optimallashtirish» usulini qo'llash asosida amalga oshirish mumkin. Ijobiy natijaga erishish uchun quyidagilarni bajarish lozim: matematik modelga kiritilgan mezonlarni investor uchun iqtisodiy jihatdan muhimlilik darajasiga qarab kamayib borish tartibida tizimlashtirish; matematik modelga kiritilgan mezonlarni aniqlik darajasini tekshirish; asosiy omil bo'yicha bir nechta ijobiy loyihalarga ega bo'lish; tanlangan mezon bo'yicha qabul qilinishi mumkin bo'lgan loyihalardagi boshqa mezonlarni hisob ishlari ularni raqobatbardoshlik darajasiga qarab ketma-ketlik tarzida amalga oshirish.

Ko'p maqsadli optimallashtirish usuli asosida investitsion loyiha samaradorligini baholashda ko'p sonli mezonlarni inobatga olinishi sababli hisoblangan natijalarni ilmiy asoslanganlik darajasi yuqori bo'ladi. Bu usuldan foydalanishda muqobil investitsion loyihalardan samarasi yuqori bo'lgan variantni tanlash maqsadida, dastlab iqtisodiy-matematik model tuziladi. Ko'p hollarda optimallashtirish mezoni sifatida *SJQ*, *RI* va kapital qo'yilmalarning *DQM* ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Dastavval, quyidagi kerakli belgilar kiritiladi:

i – maqsad funktsiya belgisi $(i=1,\ldots, n)$;

j – investitsion loyihaning muqobil varianti raqami $(j=1,..,m)$;

$\{x_j\}$ – ko'p sonli j – variantlardagi investitsion loyihalar;

X_j – investitsion loyihaning optimal varianti;

$f_j(X)$ – optimallik mezoni.

Quyidagi shartlarni bajaruvchi ko'p sonli muqobil investitsion loyihalardan $\{x_j\}$, optimal mezonli X variant tanlanadi:

$$\begin{cases} x_j=1 \text{ – investitsion loyihani } j \text{ – varianti optimal hisoblanadi} & (j=1,\ldots,m) \\ 0 \text{ – aks holda} & (3.3) \end{cases}$$

$$f_{i=1}(X) \to \max \quad (i = 1,..., n) \tag{3.4}$$

$$f_{j=2}(X) \to \max \tag{3.5}$$

$$f_{i=3}(X) \to \min \tag{3.6}$$

(3.3) tengsizligi o'zgaruvchan butun sonli qiymatlarni qabul qiladigan miqdorlarni aks ettiradi.

(3.4) tanlanayotgan investitsion loyiha bo'yicha *SJQ* ko'rsatkichini talab qilinayotgan maksimal qiymatini ifodalaydigan maqsadli funktsiya.

(3.5) tanlanayotgan investitsion loyiha bo'yicha *RI* ko'rsatkichini talab qilinayotgan maksimal qiymatini ifodalaydigan maqsadli funktsiya.

(3.6) tanlanayotgan investitsion loyihani minimal *DQM* ta'minlaydigan maqsadli funktsiya.

Ip yigiruv korxonasiga kiritilayotgan muqobil 10 investitsion loyihadan bitta optimal variantini tanlab olishni ko'rib chiqamiz. Har bir loyiha uchun ketma-ket hisoblashlar orqali *SJQ*, *RI* va *DQM* mezonlarining sonli qiymatlarini aniqlaymiz. Hisoblash natijalari 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

Muqobil variantdagi investitsion loyihalarni *SJQ*, *RI* va *DQM* larini sonli qiymatlarini hisoblash natijalari

Variant raqamlari *(j)*	**SJQ, ming AQSH dollari $f_{j=1}(X)$**	**RI $f_{j=2}(X)$**	**DQM, yillar $f_{j=3}(X)$**
1	16140	1,23	3,71
2	16430	1,38	3,65
3	16650	1,39	3,83
4	16230	1,49	3,60
5	16290	1,45	3,68
6	16330	1,27	3,69
7	16470	1,28	3,91
8	16690	1,37	3,82
9	16760	1,21	3,78
10	16790	1,34	3,79

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvalda keltirilgan investitsion loyihalardan bitta mezon bo'yicha, hech qiyinchiliklarsiz optimal variantini tanlash imkoniyati mavjud.

Aksariyat hollarda afzallik *SJQ* mezoniga beriladi. Hisoblash natijalariga ko'ra, eng maqbul variant jadvaldagi 10-variant hisoblanadi. CHunki, bu variantda *SJQ* ni eng katta qiymati 16790 ming AQSH dollariga to'g'ri keladi. Agar investor barcha uchta usullar mezonlarini hisobga oladigan bo'lsa, u holda bu variantning optimal emasligi ko'rinmoqda.

SHu nuqtai nazardan, muqobil investitsion loyihalar bir qator matematik usullar yordamida iqtisodiy ekspertizadan o'tkaziladi.

SJQ, *RI* va *DQM* larni optimallik mezonlari turli iqtisodiy tabiatga ega bo'lganligi va bir xil o'lchov birligida o'lchanmaganligi sababli, birinchi navbatda, ularni normallashtirish, ya'ni o'lchovsiz kattalikka keltirish lozim. Buning uchun mezonlarni normallashtiruvchi formuladan foydalanamiz:

$$f_j = \frac{f_j(X) - f_j^{\min}}{f_j^{\max} - f_j^{\min}} \qquad (3.7)$$

bu erda, f_j – tadbiq etilayotgan variantdagi investitsion loyiha bo'yicha j – mezondagi normallashtirilgan miqdor;

$f_j(X)$ – tatbiq etilayotgan variantlarga mos keladigan optimal mezonining joriy miqdori;

$f_j^{\min}, f_j^{\max}$ – mos ravishda tatbiq etilayotgan optimallik mezonining minimal va maksimal miqdori.

Uchta mezon bo'yicha normallashtirilgan miqdorlarni aniqlash maqsadida kerakli hisoblashishlarni loyihaning birinchi varianti misolida tavsif etamiz.

$$f_{j=1i=1} \frac{16140 - 16140}{16790 - 16140} = 0; \qquad f_{j=1i=2} = \frac{1{,}23 - 1{,}21}{1{,}49 - 1{,}21} = 0{,}0714;$$

$$f_{j=1i=3} = \frac{3{,}71 - 3{,}60}{3{,}91 - 3{,}60} = 0{,}3548$$

Barcha investitsion loyihalar bo'yicha yakuniy hisoblash natijalari 3.2-jadvalda keltirilgan.

3.2-jadval

Muqobil variantdagi investitsion loyihalar bo'yicha normallashtirilgan optimallik mezonlari qiymatlarini hisoblash natijalari

Variant raqamlari *(j)*	Optimallik mezonlarini o'lchovsiz kattaliklari		
	$f_{i=1j}$	$f_{i=2j}$	$f_{i=3j}$
1	0	0,0714	0,3548
2	0,4462	0,6071	0,1613
3	0,7846	0,6429	0,7419
4	0,1385	1,0	0
5	0,2308	0,8571	0,2581
6	0,2923	0,2143	0,2903
7	0,5077	0,250	1,0
8	0,8462	0,5714	0,7097
9	0,9538	0	0,5806
10	1,0	0,4643	0,6129

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldagi ma'lumotlardan $f_{i=3j}$ minimallashtirilgan optimallik mezoni, $f_{i=1j}$ va $f_{i=2j}$ esa maksimallashtirilgan optimallik mezoni asosida hisoblanganligi sababli optimallashtirishning yagona yo'nalishini ta'minlash maqsadida o'lchovsiz $f_{i=3j}$ ni (-1)ga ko'paytirish orqali maksimallashtiriladi. Hisoblash natijalari 3.3-jadvalda keltirilgan.

3.3-jadval

Bir xil yo'nalishdagi optimallik mezonini sonli qiymati

Variant raqamlari *(j)*	Optimallik mezonlarining o'lchovsiz kattaliklari		
	$f_{i=1j}$	$f_{i=2j}$	$f_{i=3j}$
1	0	0,0714	-0,3548
2	0,4462	0,6071	-0,1613
3	0,7846	0,6429	-0,7419
4	0,1385	1,0	0
5	0,2308	0,8571	-0,2581

6	0,2923	0,2143	-0,2903
7	0,5077	0,250	-1,0
8	0,8462	0,5714	-0,7097
9	0,9538	0	-0,5806
10	1,0	0,4643	-0,6129

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldagi ma'lumotlar asosida turli iqtisodiy-matematik usullardan foydalangan holda muqobil variantlardan optimallashtirilgan variant tanlab olinadi.

Bir maromli optimallashtirish usuli. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, barcha optimallik mezonlari iqtisodiy jihatdan teng qiymatli hisoblanadi va maqsadli funktsiyaning maksimal summadagi, sonli qiymatga ega bo'lgan variant, eng yaxshi deb qabul qilinadi.

$$f_j(X) = \sum_{i=1}^{n} f_{ij}(X_j) \to \max \quad (\forall j) \tag{3.8}$$

Investitsion loyihaning barcha muqobil variantlari bo'yicha hisoblangan jamlama qiymatdagi o'lchovsiz mezonlar 3.4-jadvalda keltirilgan.

3.4-jadval

Investitsion loyihani barcha muqobil variantlari bo'yicha hisoblangan jamlama qiymatdagi o'lchovsiz mezonlar

Variant raqamlari *(j)*	**Optimallik mezonlarining o'lchovsiz kattaliklari**			
	$f_{i=1j}$	$f_{i=2j}$	$f_{i=3j}$	**Barcha variantlar bo'yicha jamlama qiymatidagi o'lchovsiz mezonlar**
1	0	0,0714	-0,3548	-0,2834
2	0,4462	0,6071	-0,1613	0,8920
3	0,7846	0,6429	-0,7419	0,6855
4	0,1385	1,0	0	1,1385
5	0,2308	0,8571	-0,2581	0,8298
6	0,2923	0,2143	-0,2903	0,2163
7	0,5077	0,250	-1,0	-0,2423
8	0,8462	0,5714	-0,7097	0,7079
9	0,9538	0	-0,5806	0,3732
10	1,0	0,4643	-0,6129	0,8514

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, *SJQ*, *RI* va *DQM* omillarini birgalikdagi ta'siri asosida hisoblangan natijalar ichida eng optimali to'rtinchi variantdir.

Adolatli kelishuvchanlik usuli. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, $f_{i=3j}$ manfiy sonli qiymatga ega bo'lmasligi lozim. Buning uchun investitsion loyihaning ushbu variantidagi mezonning sonli qiymatiga *const* =1 qo'shamiz.

Adolatli kelishuvchanlik usuli bo'yicha hisoblashishlar quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$f_j(X) = \prod_{i=1}^{n} f_{ij}(X_i) \to \max \quad (\forall j) \tag{3.9}$$

Hisoblash natijalari 3.5-jadalvalda keltirilgan.

3.5-jadval

Muqobil variantlar bo'yicha hisoblangan investitsion loyihalar mezonlarining me'yorlashtirilgan qiymati

Variant raqamlari *(j)*	Optimallik mezonlarining o'lchovsiz kattaliklari			
	$f_{i=1j}$	$f_{i=2j}$	$f_{i=3j}$	$f_{j=}(X)$
1	0	0,0714	0,6452	0
2	0,4462	0,6071	0,8387	0,2272
3	0,7846	0,6429	0,2581	0,1302
4	0,1385	1,0	1,0	0,1385
5	0,2308	0,8571	0,7419	0,1485
6	0,2923	0,2143	0,7097	0,0445
7	0,5077	0,250	0	0
8	0,8462	0,5714	0,2903	0,1404
9	0,9538	0	0,4194	0
10	1,0	0,4643	0,3871	0,1797

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hisoblash natijasidan ko'rinib turibdiki, «adolatli kelishuvchanlik» usuli qo'llanilganda iqtisodiy jihatdan eng samarali investitsion loyiha – bu to'rtinchi variantdir.

Ip yigiruv korxonalarining investitsion loyihasi samaradorligining bitta mezon asosida hisoblanishi noto'g'ri natijalar olishga olib keladi. SHu sababli, fikrimizcha, investitsion loyiha samaradorligini hisoblashda ko'p maqsadli optimallashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

3.2. To'qimachilik tarmog'ining investitsion jozibadorligini baholash

Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini to'g'ri baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi vazifalarni hal qilish maqsadida investitsion jozibadorligini baholash amalga oshiriladi: investitsion muammolar nuqtai nazaridan tizimning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini aniqlash; iqtisodiy tizimning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va kapitalni shakllantiruvchi investitsiya oqimiga investitsion jozibadorlikni ta'sirini aniqlash; iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini tartibga solish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish; iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi sabablarni o'rganish; investitsion jozibadorligi monitoringini olib borish.

Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini baholashga doir tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda bu borada yagona metodologik yondashuvlar mavjud emas. Bunday kamchiliklar qatoriga ko'rsatkichlarni tanlash, ularni hisoblashga doir yagona usullar va formulalar yo'qligini kiritishimiz mumkin.

Investitsion jozibadorlikni baholashda, avvalambor, e'tiborni iqtisodiy sistemaning rivojlanish darajasini baholovchi ko'rsatkichlarga, ya'ni yakuniy natijaga qaratilish lozim. Uslubiy jihatdan investitsion jozibadorlikni baholash tizimida uni belgilovchi guruhlar orasidagi to'g'ri nisbatning ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ba'zi bir guruh ko'rsatkichlarga asossiz ravishda, ular mohiyatining oshirib ko'rsatilishi investitsion jozibadorlikni baholash tizimini shakllantirishda noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi.

Ayniqsa, bunday hol sifat mezonidagi ko'rsatkichlar orqali baholanishda, olinadigan natijalarni sifatini pasaytirishga va sub'ektiv baholashga olib keladi.

Investitsiya ob'ekti sifatida, o'rganilayotgan korxonaning investitsion jozibadorligini baholash va tahlil qilish o'ziga xos jixatlarga ega.

Korxona ma'lum bir vaqt oralig'ida turli xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarib, uzluksiz ravishda rivojlanib boradi.

Korxonaning investitsion jozibadorligini baholashda, moliyaviy holatni belgilovchi o'zaro bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Ular qatoriga, aktivlarning aylanuvchanligi, kapitalning foydaliligi, moliyaviy mustahkamligi, aktivlarning likvidligi ko'rsatkichlarini kiritish mumkin. Investitsiya samaradorligi ko'p hollarda qo'yilgan mablag'larning aylanish darajasiga ham bog'liq.

Aktivlarning aylanuvchanligini tahlil etish va baholashda 2-ilovada keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Aktivlar aylanuvchanlik koeffitsientlarining kamayib borishi yoki ular aylanuvchanligining ko'payib borishi korxonani rivojlanishida muayyan salbiy holatning ta'siri mavjudligidan dalolat beradi va korxonaning joriy faoliyati uchun qo'shimcha mablag'larning jalb qilinishini belgilaydi. Korxonalar uchun investitsiyalashning asosiy maqsadi qo'yiladigan mablag'larning ishlatilish jarayonida ulardan maksimal darajada foyda olish hisoblanadi.

Foydani shakllantirish imkoniyatlari bilan kapital qo'yilmani miqdorini taqqoslashda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi (3-ilova).

Moliyaviy mustahkamlik korxonaning investitsion resurslari tarkibining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan investitsion tavakkalchilikni baholash imkonini beradi va joriy ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtirish manbalarini optimallashtirish darajasining oshirilishini ta'minlaydi. Korxonada moliyaviy mustahkamlikni baholashda 4-ilovadagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonaning bankrotlik holatini oldini olishda, joriy aktivlar hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyatini likvidlikni baholash orqali aniqlash

mumkin. Aktivlarning likvidlik holati qisqa muddatli investitsion tavakkalchilik darajasini belgilaydi.

Aktivlar likvidligini tahlil qilish jarayonida bir qator koeffitsientlardan foydalaniladi (5-ilova).

Qo'yiladigan mablag'larning daromadliligi, foyda yoki daromadni qo'yilgan mablag'larga nisbati kabi aniqlanadi. Mikro darajada daromadni belgilovchi ko'rsatkich sifatida korxona hisobida qoladigan sof foydani olish mumkin.

Shunday qilib, korxonaning investitsion jozibadorligini iqtisodiy tashkil etuvchisi K_{IJ} quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{ИЖ} = \frac{Ф}{AK_{И}} \qquad (3.10)$$

bu erda,

F – tahlil qilinayotgan davr foydasi;

AK_I – korxona asosiy kapitalidagi investitsiya hajmi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiya to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lmaganda, iqtisodiy tashkil etuvchi sifatida asosiy kapitalning rentabelligi ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. Chunki, bu ko'rsatkich asosiy kapitalga oldingi davrda qo'yilgan mablag'larning samarali ishlatilishini aks ettiradi.

Korxonaning investitsion jozibadorligini baholashda, uni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhim.

Dissertatsiya ishida, «SHovot tekstil» ip yigiruv korxonasi ma'lumotlari asosida ekspert usulidan foydalangan holda omillar aniqlandi. Ekspertlar sifatida korxonaning rahbar xodimlari va etakchi mutaxassislari jalb qilindi. Tahlil natijasida investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi quyidagi omillar guruhi aniqlandi: investitsion; moliyaviy; ishlab chiqarish; xodimlarning malakasi.

Har bir omillar guruhi o'z navbatida bir nechta tashkil etuvchi ko'rsatkichlardan tarkib topgan.

Barcha ko'rsatkichlar absolyut qiymatlarga ega bo'lganligi sababli, ularni investitsiya hajmiga ta'sirini hisoblashda korrelyatsiya tahlili usulidan foydalanildi.

Korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichlari (x_i) bilan investitsiya hajmi (y) orasidagi bog'langanlik darajasi chiziqli korrelyatsiya koeffitsienti (r) yordamida hisoblandi.

$$r = \frac{n\sum xy - \sum x \sum y}{\sqrt{\left[n\sum x^2 - \left(\sum x\right)^2\right] * \left[n\sum y^2 - \left(\sum y\right)^2\right]}} \qquad (3.11)$$

Aniqlangan omillarning muhimlilik darajasini, ya'ni korxonani investitsion jozibadorligi baholanishiga ta'sirini inobatga olgan holda 63 ta ko'rsatkichdan 11 tasi tadqiqot uchun qoldirildi (3.7-jadval).

3.7-jadval

Pillakashlik korxonasining investitsion jozibadorligi baholanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar guruhlarining nomi	**Ko'rsatkichlar nomi**	**Hisoblash algoritmi**
Investitsion	Investitsiya darajasi	Investitsiyani joriy hajmini oldingi hajmiga nisbati
Moliyaviy	Mustaqillik koeffitsienti	Xususiy kapital summasini barcha ishlatiladigan aktivlarning summasini nisbati
	Mahsulot sotish rentabelligi	Foydani realizatsiya miqdoriga nisbati
	Aktivlarning rentabelligi	Foydani barcha ishlatiladigan aktivlarning summasiga nisbati
	Sof aktivlar rentabelligi	Foydani sof aktivlar summasiga nisbati
	Xususiy kapital rentabelligi	Sof foydani xususiy kapitalini summasiga nisbati
Ishlab chiqarish	Mehnat unumdorligi	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini xodimlarning o'rtacha yillik soniga nisbati
	Yil davomidagi xarajatlarning o'sishi	Joriy xarajatlar miqdorini oldingi xarajatlar miqdoriga nisbati
	Dastgohlarni eskirganlik darajasi	Hisoblangan amortizatsiyani dastlabki qiymatiga nisbati
Xodimlarning malakasi	O'rtacha ish xaqi	Yillik hisobot ma'lumotlariga asosan
	Oliy ma'lumotli xodimlarning salmog'i	Oliy ma'lumotli xodimlarning sonini ro'yxatdagi xodimlar soniga nisbati

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Chiziqli korrelyatsiya koeffitsienti musbat va manfiy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Musbat qiymat, omillar orasidagi to'g'ri bog'lanishni, ya'ni korrelyatsiya koeffitsienti qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, bog'lanish yuqoriligini bildiradi. Amaliyotda, korrelyatsiya koeffitsientining kritik qiymati 0,5 va - 0,5 deb qabul qilingan.

Tadqiqot jarayonida to'g'ri va yuqori bog'lanishga ega bo'lgan omillarni miqdoriy ko'rsatkichlari 3.8-jadvalda o'z ifodasini topgan.

3.8-jadval

Investitsiya hajmi bilan korxonani investitsion jozibadorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishi

Korxonaning investitsion jozibadorligi ko'rsatkichlari (x_i)	**Korrelyatsiya koeffitsientining qiymati** (r)
Investitsiya darajasi	0,7986
Mustaqillik koeffitsienti	0,8953
Mahsulot sotish rentabelligi	0,6301
Sof aktivlar rentabelligi	0,5964
Xususiy kapital rentabelligi	0,5290
Mehnat unumdorligi	0,8986
Yil davomidagi xarajatlarning o'sishi	0,6986
Dastgohlarni eskirganlik darajasi	0,7765
O'rtacha ish xaqi	0,5482
Oliy ma'lumotli xodimlarning salmog'i	0,6234

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Korrelyatsiya koeffitsientlari -0,5 dan 0,5 gacha bo'lgan 52 ta ko'rsatkichlarni, ya'ni investitsiya hajmi bilan bu ko'rsatkichlar bog'lanishi pastligi sababli investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlarini hisoblashda tadqiqotga kiritilmadi. Juft korrelyatsiya usuli orqali o'zaro korrelyatsiyalanadigan ko'rsatkichlar ham tadqiqotdan chiqarildi. Jumladan, aktivlarning rentabelligi bilan sof aktivlar rentabelligi o'zaro korrelyatsiyalanganligi sababli tadqiqotga sof aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi kiritildi.

Investitsiya hajmi bilan mustaqillik koeffitsienti, sof aktivlar rentabelligi va o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlari yuqori bog'lanishga ega bo'lmaganligi sababli ko'rsatkichlar tizimidan xususiy kapitalni rentabelligi, sof aktivlar rentabelligi va ish haqining o'sishi koeffitsientlari chiqarildi. Tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlar ip yigiruv korxonasini investitsion jozibadorligini baholashda muhim hisoblanib, investorlarni korxonaga investitsiyalarni yo'naltirishiga doir qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi. Ko'rsatkichlarni taqqoslash jarayonida ularni bir xil o'lchov birligiga keltirib olindi.

Korxonani investitsion jozibadorligini baholashda, salmoqlilik koeffitsientiga asosan ko'rsatkichlarni 10 ballik o'lchov birligi asosida hisob ishlari amalga oshirildi (3.9-jadval).

3.9-jadval

Tanlab olingan ko'rsatkichlarni turli o'lchov birligidan bir o'lchov birligiga keltirilishi

Ko'rsatkichlar nomi	Tavsif	Vazni
Investitsiya darajasi	1 – birdaniga yuqori siljishni anglatadi 10 – birdaniga past siljishni anglatadi	0,0876
Mustaqillik koeffitsienti	1 – birdaniga yuqori siljishni anglatadi 10 – birdaniga past siljishni anglatadi	0,1050
Mahsulot sotish rentabelligi	1 – ijobiy, 15% yuqori bo'lganda 10 – salbiy, 15% kam bo'lganda	0,0446
Sof aktivlar rentabelligi	1 – ijobiy, 15% yuqori bo'lganda 10 – salbiy, 15% kam bo'lganda	0,0389
Xususiy kapital rentabelligi	1 – ijobiy, 15% yuqori bo'lganda 10 – salbiy, 15% kam bo'lganda	0,0041
Mehnat unumdorligi	1 – 5000 so'mdan kam 10 – 250000 so'mdan ko'p	0,1278
Yil davomidagi xarajatlarning o'sishi	1 – yiliga 25% dan ko'p miqdorda kamayganda 10 – yiliga ko'payish 25% dan ko'p bo'lganda	0,0647
Dastgohlarni eskirganlik darajasi	1 – 5% dan kam bo'lganda 10 – 75% dan ko'p bo'lganda	0,0685
O'rtacha ish haqi	1 – minimal ish haqiga nisbatan olti marotabadan ko'p bo'lganda 10 - minimal ish haqiga nisbatan olti marotabadan kam bo'lganda	0,0201
Oliy ma'lumotli xodimlarning salmog'i	1 – 75% dan ko'p bo'lganda 10 – 10% dan kam bo'lganda	0,1010

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tavsiya etilayotgan uslubiyotdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalaniladi:

- turli hududdagi to'qimachilik korxonalarini investitsion jozibadorligini baholash imkonini beradi;
- iqtisodiy tizim samaradorligini aniqlashda, investorlarning biznes rejasini tuzishda, bir iqtisodiy tizimning boshqa iqtisodiy tizimdan ustunligini aniqlashda foydalanishi mumkin;
- to'qimachilikka doir investitsion loyiha, korxona va tarmoqning investitsion jozibadorligini aniqlash imkonini beradi;
- tadqiqotga kiritilayotgan omillar sonini ko'paytirish yoki kamaytirish imkonini beradi;
- kapitalni jalb etish (sarflanish) hajmini optimallashtirishda foydalanilishi;
- investitsion siyosatni amalga oshirish nizomini ishlab chiqish, investorlar talabiga asosan iqtisodiy tizimda investitsion muhitni tuzatish imkonini beradi.

Tavsiya etilayotgan uslubiy yondashuv tarmoqdagi har bir ip yigiruv korxonasi bo'yicha investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

To'qimachilik tarmog'ida investitsion faoliyat samaradorligini tadqiqining asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan mazkur bobda olib borilgan tadqiqotlar natijasi bo'yicha quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

Birinchidan, mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan korxonalarni investitsion loyihalar samaradorligini baholashda sof joriy qiymat (*SJQ*), rentabellik indeksi (*RI*), qoplash muddati (*QM*), diskontlangan qoplash muddati (*DQM*) va rentabellik koeffitsienti (*RK*) ko'rsatkichlari orqali hisoblanishi asoslandi.

Ushbu tadqiqotda samaradorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan muqobil investitsion loyihalardan optimal variantini tanlab olishda, iqtisodiy – matematik usullaridan foydalanishi maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi.

Ikkinchidan, mazkur bobda to'qimachilik tarmog'ining investitsion jozibadorligini oshirish uchun etarli shart-sharoitlar mavjudligini e'tirof etgan holda, uni baholash bo'yicha uslubiyot taklif etildi.

Korxonaning moliyaviy holatini belgilovchi aktivlarning aylanuvchanligi, kapitalning foydaliligi, moliyaviy mustahkamligi, aktivlarning likvidligi kabi ko'rsatkichlar orqali investitsion jozibadorligini baholash ilmiy jihatdan asoslandi.

Uchinchidan, korxonaning investitsion jozibadorligini baholashda, uni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Ular qatoriga investitsiya darajasi, mustaqillik koeffitsienti, mahsulot sotish rentabelligi, mehnat unumdorligi, yil davomidagi xarajatlarning o'sishi, dastgohlarni eskirganlik darajasi va oliy ma'lumotli xodimlarning salmog'i kabi omillar kiritildi.

Tavsiya etilayotgan uslubiy yondashuv tarmoqdagi har bir ip yigiruv korxonasi bo'yicha investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dissertatsiya tadqiqotlari natijalari quyidagi xulosa va takliflar qilish imkonini beradi:

1. Ilmiy – tadqiqot ishida «investitsion faoliyat» va «investitsiya» kabi iqtisodiy kategoriyalariga berilgan ta'riflar sharhlanib, ushbu tushunchalarga mualliflik nuqtai nazaridan yondashilgan holda yangicha ta'rif berildi. Unga ko'ra «investitsion faoliyat» - iqtisodiy tizimdan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini tashkil etish va o'zaro muvofiqlashtirishdir; «investitsiya» - bu foyda olish maqsadida, kapitalni barcha turlarini xo'jalik faoliyatining turli ob'ektlariga kiritilishi hamda bozor tamoyillariga asoslangan tavakkalchilik, likvidlik va vaqt omiliga bog'liq holda iqtisodiy yoki noiqtisodiy samara olishdir.

2. Investitsion jarayoni ishtirokchilari (investorlar, tijorat banklari, kredit muassasalari, davlat, korxonalar va boshqa moliyaviy institutlar) uchun iqtisodiy axborot manbai bo'lib, investitsiyaga doir qarorlarni qabul qilish uchun xizmat qiluvchi muallif nuqtai nazaridan yondashilgan holda investitsiyaning yangicha tasnifi ishlab chiqildi. Tadqiqotda «investitsion jozibadorlik» kategoriyasiga berilgan ta'riflar sharhlanib, mualliflik nuqtai nazaridan yondashilgan holda yangicha ta'rif berildi. Unga ko'ra «investitsion jozibadorlik» – bu to'lov qobiliyatiga ega investitsiyaga talab, turli ob'ektiv belgilar, xususiyatlar, mablag'lar, tizim imkoniyatlari jamlamasidir.

3. Investitsion loyihani tasniflanishiga doir tadqiqotlarning qiyosiy tahlili asosida, korxonaning tijorat faoliyatida iqtisodiy samaradorlik va foyda olishni ta'minlovchi investitsion loyihalarni mualliflik tasnifi ishlab chiqildi.

4. Mazkur tadqiqot ishida investitsion loyiha samaradorligini baholashda quyidagi ikki guruh ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etildi:

- diskontlash bo'yicha baholashga asoslangan dinamik usullar: sof joriy qiymat; rentabellik indeksi; daromadning ichki me'yori; qoplash muddati;

- hisoblash bo'yicha baholashga asoslangan statistik usullar: investitsiyani qoplash muddati va investitsiya rentabellik koeffitsienti.

5. Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalarga asoslangan ip yigiruv korxonalarining investitsion loyihalari samaradorligini sof joriy qiymat, rentabellik indeksi, qoplash muddati, diskontlangan qoplash muddati va rentabellik koeffitsienti ko'rsatkichlari orqali baholanishi taklif etildi. Ushbu tadqiqotda samaradorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan muqobil investitsion loyihalardan optimal variantini tanlab olishda, iqtisodiy – matematik usullaridan foydalanish uslubiyoti taklif etildi.

6. Dissertatsiya ishida to'qimachilik tarmog'ining investitsion jozibadorligini oshirish uchun etarli shart-sharoitlar mavjudligi aniqlandi va uni baholash bo'yicha uslubiyot tavsiya etildi. Korxonaning investitsion jozibadorligini baholashda, uni shakllantiruvchi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi. Ular qatoriga investitsiya darajasi, mustaqillik koeffitsienti, mahsulot sotish rentabelligi, mehnat unumdorligi, yil davomidagi xarajatlarning o'sishi, dastgohlarni eskirganlik darajasi va oliy ma'lumotli xodimlarning salmog'i kabi omillar kiritildi. Tavsiya etilayotgan uslubiy yondashuv tarmoqdagi har bir ip yigiruv korxonasi bo'yicha investitsion jozibadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 5 maydagi «CHet el investitsiyasi va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil, 24 dekabrdagi «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi» Qonuni

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 20 iyundagi «Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 20 iyundagi «Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar tomonidan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirishiga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF - 367 – son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyani jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 14 martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.

9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo’llab-quvatlash, ularning barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida»gi Farmoni.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishini rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Qarori.

III. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

11. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 y., 2 maydagi «To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyani huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi 205 – son Qarori.
12. Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan №141 ot 25 marta 2004 goda «O merax po sovershenstvovaniyu strukturы upravleniya Gosudarstvenno-aktsionernoy kompaniy «O’zbekengilsanoat» i stimulirovaniyu dalneyshego razvitiya legkoy promыshlennosti respubliki».
13. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 1 maydagi «Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarga berilayotgan imtiyozlarning rag’batlantiruvchi rolini oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi 74 – son Qarori.
14. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 22 maydagi «O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yirik investitsiya loyihalarni ekspertizadan o’tkazish byurosida maqsadli dasturlar, kontseptsiyalar va investitsiya loyihalarni ekspertizadan o’tkazish va tavsiyalar tayyorlash tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 91 – son Qarori.
15. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 dekabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni

kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 288 – son Qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

16. Karimov I.A. Islohotlar va investitsiya bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishdagi ma'ruza. // «Xalq so'zi», 2000, 2 fevral.
17. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - bosh yo'limiz. // «Xalq so'zi», 2002 y., 15 fevral.
18. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 b.
19. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.
20. Karimov I.A. «Bosh maqsadimiz – keng kulamli islohotlar va modernizaiya yxlini qat'iyan bilan davoi ettirish». Xzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mxljallangan iqtisodiy dastxrning eng muhim ustuvor yxnalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'rxzasi. «Xalq sxzi», 2013 yil 19 yanvar.

V. Kitob va risolalar

a) bir muallifning:

21. Abramov S.I. Investirovanie. – M.: «TSentr ekonomiki i marketinga», 2000. – 440 s.
22. Blank I.A. Investitsionnыy menedjment. – Kiev.: 2-e izd. «Nika-TSentr» 2006. – 552 s.

23. Djons Ernest. Delovыe finansы: Per. s angl. – M.: ZAO «Olimp-Biznes», 1998. – 654 s.
24. Zlatorunskaya E.N. Planirovanie na predpriyatiyax tekstilnoy promыshlennosti: Uchebnik dlya vuzov. – M.: «Legprombыtizdat», 1991.– 240 s.
25. Zolotogorov V.G. Investitsionnoe proektirovanie: – Minsk: IP «Ekoperspektiva», 1998. – 463 s.
26. Ivanov G.I. Investitsii, suщnost vidы, mexanizmы, funktsionirovanie. – Rostov n/D.: «Feniks», 2002. – 250 s.
27. Idrisov A.B. Strategicheskoe planirovanie i analiz effektivnosti investitsiy. – M.:PRO-invest Cousulting, AOZT «Interek», «INFRA-M». 1995. – 269 s.
28. Klas Eklund. Effektivnaya Ekonomika. Shvedskaya model. – M.: «Ekonomika», 1999. – 260 s.
29. Kovalev V.V. Vvedenie v finansovыy menedjment. – M.: «Finansы i statistika», 1999. – 230 s.
30. Kovalev V.V. Metodы otsenki investitsionnыx proektov. – M.: MAEP; IIK «Kalita», 2000. – 184 s.
31. Koshalev V.M. Instrumentы i metodы podgotovki investitsionnыx resheniy v selskom xozyaystve. – M.: FGOU VPO RGAU – MSXA im. K.A. Timiryazeva, 2005. – 180 s.
32. Laxmetkina N.I. Investitsionnaya strategiya predpriyatiya. Ucheb. posobie. – M.: KNORUS, 2006. – 184 s.
33. Tuxliev B.K. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish – T.: TDIU, 2007. – 144 b.
34. Tsarev V.V. Otsenka ekonomicheskoy effektivnosti investitsiy. – SPb.: «Piter», 2004. – 464 s.
35. G’ozibekov D.G’. Investitsiyani moliyalashtirish masalalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2004. – 308 b.
36. G’ulomov S.S. Investitsiyaning loyihaviy tahlili. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1998.

37. Kern W. Investitionsrechnung. – Stutgart: 1974. – 529 r.

b) ikki muallifning:

38. Valinurova L.S., Kazakova O.B. Upravlenie investitsionnoy deyatelnostyu. – M.: KNORUS, 2005 – 384 s.
39. Vaxrin P.I., Nishitoy A.S. Investitsii: Uchebnik.-3-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2005. – 376 s.
40. Sergeev I.V., Veretennikova I.I. Organizatsiya i finansirovanie investitsiy. – M.: Finansы i statistika. 2000. – 272 s.
41. Xasanov B., Egamberdieva S. Kapital qo'yilmalar hisobi va auditini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «Fan» nashriyoti, 2007. – 136 b.

v) uch muallifning:

42. Velinskiy P.L., Livщits V.N., Smolyak S.A. Otsenka effektivnosti investitsionnых proektov: Teoriya i praktika: – 3-e izd., ispr. i dop. – M.: «Delo», 2004. – 888 s.
43. Jo'raev A.S., Xo'jamqulov D.YU., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili; Akad. M.SHarifxo'jaev tahriri ostida. – T.: «SHarq», 2003. – 256 b.
44. Sharp U., Aleksandr G., Beyli D. Investitsii: Per. s ang. – M.: INFRA – M, 1999. – XII, – 1028 c.
45. Sheremet A.D., SayfulinR.S., Negashev E.V. Metodika finansovogo analiza.–3-e izd., pererab. i dop. – M.:INFRA-M, 2002. – 2008 s.
46. Qodirov A., Giyasov B.J., Mirzamaxmudov T. Investitsiyani va investitsiya bozorini takomillashtirish. – T.: TDTU, 2005. – 123 b.

g) mualliflar jamoasi:

47. Investitsii / S.V. Valdaytsev, P.P. Vorobev i dr.; pod red. V.V. Kovaleva, V.V. Ivanova, V.A. Lyalina. – M.: TK «Velbi», «Izd-vo Prospekt», 2005. – 440 s.

d) butun manbalar:

48. «O’zbekiston Iqtisodiyoti» statistik ma’lumotlar to’plami. Toshkent, 2012. – 126-b.
49. «O’zbekengilsanoat» Davlat aktsiyadorlik kompaniyasi 2010-2012 yillardagi ma’lumotlari.

IX. Internet saytlari

50. www.gov.uz
51. www.legprom.uz

ILOVALAR

1-ilova

Investitsion loyihalarni baholashda foydalaniladigan usullarni tizimlashtirilgan yutuq va kamchiliklari

№	Afzalligi	Kamchiligi
	Sof joriy qiymat usuli (SJQ)	
1	Hisoblashning oddiyligi.	*SJQ*ni juda katta hajmdagi qiymati kapital qo'yilmalarni iqtisodiy jihatdan mos variantlariga har doim ham mos kelmaydi.
2	Mezonlarni qarama-qarshi xarakterga ega bo'lmasligi, loyihalarni iqtisodiy samarasiga qarab (kamayishi yoki ko'payishi) amalga oshirish imkonini beradi.	Diskontlash stavkasi darajasi haddan tashqari yuqori bo'lganda, pul oqimlarini *SJQ*ga ta'siri kamayadi.
3	Kapital qo'yilmani samaradorlik darajasini yaxshi ifodalaydi.	Hisoblash natijalarini tanlangan diskont stavkalariga kuchli bog'langanligi.
4	Turli loyihalar bo'yicha *SJQ* larni jamlash imkoniyatini mavjudligi.	Hisoblashda foydalanilgan dastlabki ma'lumotlardagi noaniqliklarni hisobga olmasligi.
5		Investitsion loyihalarni xavfizlik imkonini ifodalamaydi.
	Rentabellik indeksi (RI)	
6	Investitsion loyihalarni eng samarali portfelini shakllantiri-lishini ta'minlaydi.	Investitsion loyihalarni hajm omilini hisoblash imkonini mavjud emasligi.
7	Investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini *SJQ* ga nisbatan yaxshi tavsiflaydi.	Muqobil investitsion loyihalar bo'yicha hisoblangan natijalar *SJQ* usulida hisoblangan natijalarga mos kelmasligi.
8	Investitsion xarajatlar bilan ularni sarflanishidan olinadigan iqtisodiy natija (samara)ni taqqoslash imkoniyatini mavjudligi	Hisoblashda foydalanilgan dastlabki ma'lumotlardagi noaniqliklarni hisobga olmasligi.
9		*RI* eng yuqori qiymati *SJQ*ni yuqori qiymatiga har doim mos kelmaydi.
10	Investitsion loyihani qo'yi darajadagi foydaliligini ta'minlaydi.	Hisoblash jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanilmaslik qiyinchiliklarga olib keladi.
11	Hisoblash natijalarini investi-tsiyani mutloq hajmiga bog'lan-masligini ta'minlaydi.	Investitsion loyihalarni foydalilik darajasini ketma-ketlashtirish mezoni bo'yicha joylashtirilishini samarasini pastligi.
	Daromadni ichki me'yori (DIM)	
12	Turli darajadagi tavakkalchilikga ega bo'lgan investitsion loyihalarni taqqoslash imkoniyatini ta'minlaydi (yuqori tavakkalchilik darajasiga ega bo'lgan loyihalar katta miqdordagi *DIM* ga to'g'ri keladi).	Hisoblash natijalarini kelajakdagi pul oqimlarini baholashdagi aniqligiga bog'liqligi.
13	YUqori axborotlilik, hisoblashning haqiqiyligi va investitsiyani mutloq hajmidan xoliligini ta'minlaydi.	Mezonlar bo'yicha bir – biriga yaqin loyihalar ichidan samaralisini tanlab olishni qiyinligi.

14	Elektron hisoblash jadvallar yordamida hisoblashni avtomat-lashtirish uchun qulayligi.	Kapitalni oqimi bilan tushumini ketma-ketligi sharoitida foydalanish uchun yaroqsizligi.
15	*SJQ* mezoniga nisbatan «loyihani xavfsizlik imkoniyati» ni sezilarli darajada yuqoriligini ifodalaydi.	Eng samarali investitsion loyihani har doim aniqlashni imkoniyati yo'qligi.
16	Korxonani nomaqbul o'zgarishlarga chidamliligi (*DIM* miqdori katta bo'lmagan korxonalar investorlar uchun jozibador hisoblanadi).	*DIM*ni yuqori qiymatida bir qism samarali loyihalarni hisobga olish imkoniyati yo'qligi.
17	Investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini pasayib borishi asosida to'g'ri ketma – ketlikda joylashtirish imkoniyatini mavjudligi.	Hisoblashda foydalanilgan dastlabki ma'lumotlardagi noaniqliklarni hisobga olmasligi.
18	Muqobil investitsion loyihalarni nisbiy baholanishida foydalanish uchun qulayligi	Sof iqtisodiy naf qiymatini aks ettira olmasligi.
Qoplash muddati usuli (QM)		
19	Hisoblashning oddiyligi.	Quyilmani quyish muddatidan tashqaridagi pul oqimlarini hisobga olmasligi.
20	Pul aylanmalarini hajmi kichik bo'lgan korxonalarda qo'llanishini maqsadga muvofiqligi.	Turli davrlarda amalga oshiriladigan bir xil *QM* ga ega bo'lgan loyihalarni baholashda qo'llanish imkoniyatini yo'qligi.
21	Resurslar etishmaslik sharoitida loyihalarni tezda baholash imko-niyatini mavjudligi.	Hisoblash natijalarini aniqligini loyihani amalga oshirish muddatiga (yarim yil, chorak) bevosita bog'liqligi.
22	Turli hildagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga doir loyihalarni baholashda qulayligi.	Muqobil loyihalarni samardorligini baholashda qo'shimcha usullarni o'rnini chegaralanganligi.
23		Investor tomonidan hisoblanadigan diskontlangan *QM* bilan taqqoslanadigan *QM*ni me'yoriy qiymatini sub'ektiv ravishda belgilanishi.
24		Afzallikni, iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan loyihalarga emas, balki *QM* qisqa bo'lgan loyihalarga belgilanishi.
25		Pulning vaqt bo'yicha qiymatini hisobga olinmaganligi.

2-ilova

Aktivlar aylanuvchanligini belgilovchi ko'rsatkichlar

№	Hisoblash formulasi	Ko'rsatkich ta'rifi	Ko'rsatkichning belgilanishi
1	$K_{AA}=\frac{R_H}{\bar{A}_K}$	Mahsulotning realizatsiya miqdorini ishlatiladigan aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati	K_{AA} – ishlatiladigan barcha aktivlarni aylanuvchanligi; $\bar{A}_K$ – aktivlarning o'rtacha qiymati; R_H – realizatsiya miqdori
2	$K_{JAA}=\frac{R_H}{J\bar{A}_K}$	Mahsulotning realizatsiya miqdorini joriy aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati	K_{JAA} – joriy aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsienti; $Ж\bar{A}_K$ – joriy aktivlarning o'rtacha qiymati
3	$A_IA_D=\frac{D_K}{K_{AA}}$	Ma'lum davrdagi kunlarni barcha ishlatiladigan aktivlarni aylanuvchanlik koeffitsientiga nisbati	A_IA_D – aktivlarning ishlatilishini aylanuv-chanligi davomiyligi; D_K – davrdagi kunlar (360 kun)
4	$JA_{AD}=\frac{D_K}{K_{JA}}$	Ma'lum davrdagi kunlarni joriy aktivlarni aylanuvchanlik koeffitsientiga nisbati	JA_{AD} – joriy aktivlarning aylanuvchanlik davomiyligi; D_K – davrdagi kunlar (90 kun)

3- ilova

Foydani shakllantirilganlik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar

№	Hisoblash formulasi	Ko'rsatkich ta'rifi	Ko'rsatkichning belgilanishi
1	$F_{IA}=\frac{S_F}{\bar{A}_K}$	Sof foydani ishlatiladigan aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati	F_{IA} – barcha ishlatiladigan aktivlarning foydaliligi; S_F – sof foyda
2	$F_{JA}=\frac{S_F}{J\bar{A}_K}$	Sof foydani joriy aktivlarning o'rtacha qiymatiga nisbati	F_{JA} – joriy aktivlarning foydaliligi
3	$R_{AV}=\frac{S_F}{AB_K}\times 100$	Sof foydani asosiy vositalarning o'rtacha qiymatiga nisbati	R_{AV} – asosiy vositalarning rentabelligi; AB_K – asosiy vositalarning o'rtacha qiymati
4	$F_{MS}=\frac{S_F}{R_H}$	Sof foydani mahsulot realizatsiya hajmiga nisbati	F_{MS} – mahsulot sotishni foydaliligi
5	$F_K=\frac{YAF}{\bar{A}_K-NA}$	Yalpi foydani ishlatiladigan aktivlarning o'rtacha qiymatidan nomoddiy aktivlarning ayirmasi nisbati	F_K – foydalilik ko'rsatkichi; YAF – yalpi foyda; NA – nomoddiy aktivlar

4-ilova

Korxonaning moliyaviy mustahkamligini belgilovchi ko'rsatkichlar

№	Hisoblash formulasi	Ko'rsatkich ta'rifi	Ko'rsatkichning belgilanishi
1	$K_A = \frac{K_u}{A_J}$	O'zini kapitalini summasini barcha ishlatiladigan aktivlarning summasini nisbatiga teng	K_A – avtonomlik koeffitsienti; A_J – ishlatiladigan aktivlarning summasi
2	$K_{MU} = \frac{I_{KM}}{A_U}$	Ishlatiladigan qarz mablag'lari summasini o'zini aktivlarini summasi nisbatiga teng	$Q_{MO'}$ – qarz mablag'larini o'zini mablag'lariga nisbati koeffitsienti; I_{QM} – ishlatiladigan qarz mablag'lari; A_U – o'zini aktivlari summasi
3	$K_{UM} = \frac{У_{MK}}{A_J}$	Uzoq muddatli qarzlar summasini barcha ishlatiladigan aktivlar summasi nisbatiga teng	K_{UM} – uzoq muddatli majburiyatlar koeffitsienti; U_{MQ} – uzoq muddatli qarzlar

5-ilova

Aktivlar likvidligini belgilovchi ko'rsatkichlar

№	Hisoblash formulasi	Ko'rsatkichning ta'rifi	Ko'rsatkichning belgilanishi
1	$K_{AL} = \frac{PM}{QM}$	Pul mablag'lari summasini qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatiga teng	K_{AL} – absolyut likvidlik koeffitsienti; PM – pul mablag'lari; QM–qisqa muddatli majburiyatlar
2	$K_{QMM} = \frac{PM + MQ_Q + D_M}{QM}$	Pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va debitorlik majburiyatlari summasini qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatiga teng	K_{QML} – qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti; D_M – debitorlik majburiyatlar
3	$K_{DMM} = \frac{P'_X}{D\bar{K}_K}$	Keyinchalik to'lash shartida mahsulotni realizatsiya miqdorini debitorlik qarzlarini o'rtacha qiymati summasi nisbatiga teng	K_{DMA} – debitorlik majburiyatlar aylanuvchanlik koeffitsienti; P'_X – keyinchalik to'lash shartida mahsulotni realizatsiya miqdori; $D\bar{K}_K$ – debitorlik qarzlarini o'rtacha qiymati summasi